

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

MAHMUDOV SHOHRUH BAHODIROVICH

**“MAHALLIY BUDJETLAR IJROSIDA G‘AZNACHILIKNING
O‘RNI VA AHAMIYATI”**

5340600 -“Moliya” - ta‘lim yo‘unalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dots. K.Sharifxodjayeva

«____»_____ 2016 y.

Ilmiy rahbar: _____ k.o‘q.Q.Chinulov

TOSHKENT - 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BUDJET IJROSIDA G'AZNACHILIKNING O'RNI, AHAMIYATI VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	
1.1. Davlat budjeti g'azna ijrosining zarurligi, ahamiyati va joriy etish bosqichlari.	7
1.2. Budjet ijrosida G'aznachilik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.	14
I bob bo'yicha xulosa.	19
II BOB. MAHALLIY BUDJETLAR G'AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI TAHLILI	
2.1. Mahalliy budjetlar g'azna ijrosini tashkil etishda G'aznachilik hududiy bo'linmalarining faoliyati tahlili.	21
2.2. G'aznachilikda davlat budjetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish amaliyoti.	27
2.3. Mahalliy budjetlar g'azna ijrosida dastlabki va joriy budjet nazoratini olib borish amaliyoti.	35
II bob bo'yicha xulosa.	48
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLAR IJROSIDA G'AZNACHILIK FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI	
3.1. Mahalliy budjetlar g'azna ijrosini samarali tashkil etish yo'llari.	49
3.2. G'aznachilik yagona axborot tizimining takomillashuvi.	56
III bob bo'yicha xulosa.	61
XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda, davlat budjeti g‘azna ijrosiga bosqichma-bosqich o‘tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o‘zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta’minlash zarur bo‘ladi.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushumlarini yagona g‘azna hisobraqamga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari, davlat qarzlar va ularga xizmat ko‘rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag‘larining samarali ishlatilishini ta’minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to‘g‘risida operativ tarzda ma’lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda g‘aznachilik tizimini samarali tadbiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo‘lindi. Keyingi yillarda bu natijalar yanada mustahkamlanmoqda. 2014 yil yakunlariga qaraydigan bo‘lsak, “Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga oshdi. ... Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir. O‘tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig‘i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga

kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.”¹.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar, butun moliya tizimida, uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarini tushuna oladigan, budjet ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, budjetdan mablag' oluvchilar va budjet tashkilotlari amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu sababli davlat moliyasi uchun tashabbuskor, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda budjet-moliya va g'aznachilik nazariyasi va amaliyotini o'rganishga muhim o'rin beriladi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida davlat moliyasini boshqarish tizimini amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga moslashtirish, ular faoliyatini so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda muvofiqlashtirish, davlat moliyasini boshqarishni shaklan va mazmunan yangi sifat pog'onasiga ko'tarish, markaziy va hududiy moliya va g'aznachilik organlari faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishning zarurligi **mazkur bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini** belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ish ustida olib borilgan izlanishlarimizning obyekti sifatida G'aznachilik organlarining, shuningdek, Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi hamda Shayxontoxur tuman G'aznachilik bo'linmasining mahalliy budjet ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish yuzasidan amaliy faoliyati tanlab olindi.

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish — ustuvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston. 2015. 5-bet.

Bevosita o'rganish predmetini mahalliy budjetlar g'azna ijrosini tashkil etish va nazoratini olib borishda ishtirok etuvchi g'aznachilik organlarining faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzuning **asosiy maqsadi** G'aznachilik tizimi faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va G'aznachilik faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha bugungi kundagi dolzarb muammolarini tadqiq qilish, tegishli xulosalarni shakllantirish va ularni nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

Mavzuning mazmunini yoritishda va tanlab olingan tadqiqot yo'nalishini yoritishda quyidagilar **asosiy vazifalar** qilib belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti g'azna ijrosining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- davlat budjeti g'azna ijrosining institutsional tarkibini ko'rib chiqish, G'aznachilikning tarkibi, tuzilishi, tarkibiy tuzilmalarining asosiy vazifalarini o'rganish;
- Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarining budjet mablag'larini boshqarish va nazorat qilishdagi faoliyati tahlilini olib borish;
- G'aznachilik organlari faoliyati samaradorligini oshirishning ayrim masalalarini ko'rib chiqish;
- izlanishlar asosida Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish va ularni nazariy jihatdan asoslab berish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyatini unda davlat budjeti g'azna ijrosining mazmuni, vazifalari, institutsional tarkibi, G'aznachilikning zarurligi asosli tarzda ochib berilganligi va yaxlit ilmiy ish sifatida shakllantirilganligi belgilab beradi. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosini

kompleks tahlil qilish asosida davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv-malakaviy ishning tarkibi kirish qismi, 7 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning I bobida davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil etish masalalari nazariy jihatdan o'rganilgan, davlat budjeti g'azna ijrosining institutsional tarkibida G'aznachilikning o'rni, ahamiyati va vazifalari tadqiq qilingan, G'aznachilik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari sharhlab berilgan.

II bobda davlat budjeti g'azna ijrosini O'zbekiston respublikasida tadqiq etish bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari tahlil qilingan, Moliya vazirligi G'aznachiligining davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil etish va nazoratini olib borish bilan bog'liq amaliy faoliyati natijalari tahlil qilingan, g'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish o'rganilgan.

III bobda G'aznachilik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.


Xulosa qismida ish yuzasidan shakllangan xulosalar bayon qilingan va nazariy jihatdan asoslab berilgan.

I BOB. BUDJET IJROSIDA G'AZNACHILIKNING O'RNI, AHAMIYATI VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat budjeti g'azna ijrosining zarurligi, ahamiyati va joriy etish bosqichlari

Davlat moliyasini boshqarish(DMB)ni isloh etish strategiyasi O'zbekiston Respublikasida DMB tizimini nazorat qilishni takomillashtirishdan iborat. Ushbu strategiyadan kutilayotgan oraliq maqsad – DMB tizimida muhim jarayonlarni modernizatsiyalash bo'lib, bugungi kunda islohotlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat (1-rasm):

1-rasm. Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasi yo'nalishlari¹



Ushbu strategik vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 1 noyabrda PQ-721-son Qarori asosida tayyorlandi

(26.08.2004) Qonunning qabul qilinishi budjet ijrosi g‘aznachilik tizimiga o‘tilishiga asos soldi. 2005 yil may oyida davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida “Davlat budjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyot boshqarmasi”, keyinchalik (2007 yil 28 fevral 594-son Prezident qarori bilan) uning negizida Moliya vazirligi G‘aznachiligi tashkil etildi.

2007 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-721-son Qarori (01.11.2007) qabul qilinib, unda davlat moliyasini boshqarishni isloh etish loyihasini yangi ishtirokchi – Osiyo taraqqiyot banki bilan birga amalga oshirish belgilandi.

Umuman olganda, davlat moliyasini boshqarishdagi islohotlarni amalga oshirish maqsadlariga hukumatimiz tomonidan ajratilgan mablag‘lardan tashqari, Jahon banki tomonidan – 14,2 mln. dollarlik kredit mablag‘lari, Yaponiya hukumati tomonidan – 2,8 mln. dollar, TESIS tomonidan – 2,8 mln. dollar va Islom taraqqiyot banki tomonidan – 0,2 mln. dollarlik grantlar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri – budjet tizimining to‘liq shaffofligini ta’minlash maqsadida budjet mablag‘larini ularning oluvchilariga etkazishda kechikishlarga, qarzдорlikka yo‘l qo‘ymaslik, budjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish holatlariga barham berish, budjetlararo munosabatlar samaradorligini oshirgan holda hokimiyatlarning turli darajalaridagi budjetlarning hamda budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning daromad va xarajatlari hisobraqamlarini G‘aznachilikka o‘tkazishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini O‘zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat

moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. G'aznachilik tizimi davlat budjetini ijro etishning samarali va amaliy mexanizmi hisoblanib, unda davlat daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha operatsiyalar G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Muhtaram Prezidentimiz bu borada shunday degan edi: "Davlatning hazinasi, uning daromad va buromadini, bugungi va ertangi kunini belgilaydigan boylik qaerda saqlanadi, kim uni himoyalaydi? Albatta, Moliya vazirligi. Shu ma'noda, agar menga qolsa, Moliya vazirligini Hazina vazirligi deb atagan bo'lardim"¹.

Budjet ijrosining g'aznachilik tizimi deganda davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqam orqali davlat budjetini ijro etish hamda davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

G'aznachilik budjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi, mol etkazib beruvchilar tomonidan ularga mahsulotlar etkazib berilganidan va xizmatlar ko'rsatilgandan so'ng, budjetdan mablag' oluvchilarning nomidan va ularning topshirig'iga asosan G'aznachilik vakolatni o'z zimmasiga oladi va budjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida taqdim qilingan hujjatlar asosida to'lovni amalga oshiradi.

G'aznachilik tizimining rivojlanishi budjet ijrosida ishtirok etuvchi barcha darajadagi moliya va soliq organlarining faoliyatini umumlashtiradi, yangi sharoitlarda ularning butun faoliyati davlat moliyaviy mablag'larini yagona davlat hazinasida jamlashga qaratiladi.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G'aznachilik ham alohida muhim o'rin egallaydi. G'aznachilik - budjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul

¹ I.Karimov "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida". T.: O'zbekiston. 2005 y. 285-bet

qiladi va budget tashkilotlariga etkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun g'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga binoan vakolatni o'z zimmasiga oladi va budget mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat budjeti g'azna ijrosi deganda davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat budjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda budget ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

budget tushumlarini taqsimlash;

tegishli budjetlarda jamlangan mablag'larni budjetdan mablag' oluvchilarning ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o'tkazish.

Davlat budjeti ijrosining bunday tartibida budget mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lib qoldi. Davlat budjeti mablag'laridan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina buxgalteriya hisobotlari orqali so'nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Mazkur muammolarni e'tiborga olgan xolda, Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tizimida budjetni g'aznachilik orqali ijro etish uchun mas'ul bo'lgan institutsional tuzilma shakllantirildi. Bu faoliyat bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin (1-jadval):

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti g‘azna ijrosini tadbqiq etish bosqichlari¹

yillar	Amalga oshirilgan tadbir	Asos
2002 yil	Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirish boshlandi	O‘zR VMning “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qarori (26.04.2002)
2004 yil	Davlat budjeti g‘azna ijrosining qonuniy-huquqiy asosi yaratildi	O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi 664-II sonli Qonuni (26.08.2004)
2005 yil	Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g‘aznachilik tizimini joriy qilish bo‘yicha tajriba loyihasi boshlandi	O‘zR VMning “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-son Qarori (26.04.2002)
2006 yil	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida davlat budjeti g‘azna ijrosi bosqichma-bosqich joriy qilindi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida"gi PQ-244-sonli qarori (27.12.2005)
2007yil	Barcha hududlarda davlat budjeti g‘azna ijrosi joriy qilindi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tuzildi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat budjeti g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594 sonli Qarori (28.02.2007)
2009 yil	Davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning g‘azna ijrosi joriy qilindi, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromad va xarajatlari g‘azna ijrosi yo‘lga qo‘yildi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida"gi PQ-1024-sonli qarori (29.12.2008)
2010 yil	Tajriba tariqasida davlat budjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g‘aznachilik orqali amalga oshirila boshladi	PQ-1245-sonli qarori (22.12.2009)
2011 yil	Davlat xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasining ishchi organi O‘zR MV G‘aznachiligi deb belgilandi.	O‘zR Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub’ektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475-sonli qarori (17.02.2011)
2012 yil	Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idan amalga oshirila boshlandi	Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida

¹ Po‘latov D., Nurmuxamedova B. G‘aznachilik. Darslik. - T.: “Sano-standart”. 2014. 28-bet.

1. 2002 yilda “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasi ma’qullandi hamda uni tayyorlash va amalga oshirish bo’yicha mas’uliyat Moliya vazirligiga yuklatildi. Mazkur loyihaning maqsadi “davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag’larining samarali sarflanishini ta’minlash, budjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat”¹ bo’ldi.

2. 2004 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to’g‘risida”gi Qonunini qabul qilindi.

Bu Qonun budjet xarajatlarini boshqarish va nazorat qilish jarayonlariga keskin o‘zgartirishlar kiritdi. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalarining) va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag’larining g‘azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

“Davlat budjeti g‘azna ijrosi to’g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida budjetdan mablag‘ oluvchilarning tovarlarni etkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish hamda ularning xarajatlarini to‘lashga qaratilgan budjet mablag‘larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi.

1. 2005 yilda Moliya vazirligi tarkibida davlat budjetining g‘azna ijrosini joriy qilish uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini joriy etish – keng qamrovli masala bo‘lib, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qator masalalarni hal qilishni talab etardi, xususan, g‘aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, yagona g‘azna hisobvarag‘ini ochish va shu kabi masalalar Uslubiyot boshqarmasi faoliyatining diqqat markazida bo‘ldi va budjetning g‘azna ijrosi metodologiyasini yaratishga qaratildi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi 144-son (26.04.2002) Qarori, 3-band.

2. 2007 yilda respublikaning barcha hududlarida davlat budjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko'ra barcha guruhlari bo'yicha ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi.

3. 2007 yilda Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

4. 2009 yilda davlat budjeti bilan birgalikda, davlat maqsadli jamg'armalarning ham ijrosi g'aznachilik tizimiga o'tdi. Bu maqsadda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari harakatini ta'minlovchi tegishli banklardagi ularning hisobraqamlari yopilib, G'aznachilikda ular uchun shaxsiy hisobraqamlar ochildi va ularning daromadlari tushumi va harajatlari to'lovi shu hisobraqamlardan amalga oshirila boshlandi.

5. 2010 yildan boshlab tajriba tariqasida davlat budjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi;

6. 2011 yildan boshlab yangi budjet tasnifiga asoslangan, davlat budjeti g'azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi G'aznachilik dasturiy majmui ishga tushirildi.

7. 2011 yilning 7 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475-sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilandi. G'aznachilik

tashkiliy tuzilmasi tarkibida esa “Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo‘limi” tarkib topdi.

8. 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari G‘aznachilikning Yagona g‘azna hisobvarag‘idan amalga oshirila boshlandi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat budjetiga o‘tkaziladigan soliqlar va majburiy to‘lovlar banklar tomonidan qabul qilinadigan va belgilangan tartibda 23402-, 23403-, 23407-, 23409-, 20207-, 20205- va 23411-sonli balans hisobvaraqlarda ochilgan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kirim qilinadigan va ular hisobidan tegishli budjetlar va Davlat maqsadli jamg‘armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalar amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

1.2. Budjet ijrosida g‘aznachilik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Jahondagi glaballashuv jarayonlarida faol qatnashayotgan O‘zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish va tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat budjeti va budjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so‘nggi ijobiy natijalarni ko‘zlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarish talab etilmoqda¹.

Bu borada dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002 yil 26 aprelda 144-son Qarori qabul qilindi. Mazkur loyihaning maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan

¹Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari (20.12.2009). T.: HUMOYUN ISTIQLOL MO‘JIZASI. 2009. 87-88-betlar

foydalangan holda budget mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, budget ijrosining yangi tizimini yaratishdan iboratdir. Ko'rsatib o'tilgan loyihani amalga oshirish yuzasidan mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri 2004 yil 26 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II sonli Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalarining) va budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunda davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq quyidagi holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi:

- davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy printsiplari;
- davlat budgetining g'azna ijrosi muddatlari;
- G'aznachilikning asosiy vazifalari;
- G'aznachilikning boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari;
- G'aznachilikning bank hisobvaraqlari;
- davlat budgetining xarajatlarini amalga oshirish;
- davlat budjeti mablag'larini boshqarish;
- davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi;
- davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

"Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi o'z navbatida budgetdan mablag' oluvchilar bilan ularga tovar(xizmat, ish)larni etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning xarajatlarini to'lab berishga qaratilgan budget mablag'larining harakatini nazorat qilish tartibini aniqlash va belgilashni taqozo etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 63-son (05.05.2005)

buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1475-raqam (21.05.2005) bilan ro'yxatga olingan "Moliya organlarida budjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlari to'lovini nazorat qilish tartibi haqida Vaqtinchalik nizom" qabul qilindi. Ushbu Nizom tajriba tariqasida Samarqand viloyatida, shu jumladan respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim budjet tashkilotlarida budjetdan mablag' oluvchilar bilan mol etkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazish va budjet mablag'larini ularning xarajatlarini to'lashga o'tkazish ustidan nazorat qilish tartibini belgilab berdi.

Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2007 yil 28 fevralda "Davlat budjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-594 sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat budjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyot boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur Qaror bilan G'aznachilikning asosiy vazifalari belgilab berildiki, ular "Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunda aks etgan G'aznachilikning vazifalariga yanada aniqlik kiritdi.

2007 yil 20 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom "Davlat budjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594

sonli (27.02.2007) qaroriga muvofiq ishlab chiqildi hamda G‘aznachilikning asosiy vazifalari, funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilab berdi.

Keyingi yillarda ham davlat budjeti g‘azna ijrosining me‘yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 69-sonli (04.08.2009) buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2007-raqam (16.09.2009) bilan ro‘yxatga olingan “Davlat budjetining g‘azna ijrosi Qoidalari”ning qabul qilinishi muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Mazkur “Qoidalar” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan respublika va hududiy g‘azna hisobvaraqlarini qo‘llash sharoitida respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning g‘azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Xususan, ushbu “Qoidalar” muqaddam amal qilib kelgan bir qator me‘yoriy xujjatlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda, quyidagilarni belgilab berdi:

- G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan respublika va hududiy g‘azna hisobraqamlarini qo‘llash sharoitida respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning g‘azna ijrosini amalga oshirish tartibini;

- respublika g‘azna hisobraqami va hududiy g‘azna hisobraqamlarini yuritish tartiblarini,

- Respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi,

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalarini va ularga o‘zgartirishlarni g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etish tartiblarini,

- yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olishning umumiy qoidalarini,

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish tartiblarini va boshqalar.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, budjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida budjet faoliyatini rivojlantirish davlat

moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, 2000 yil 14 dekabrda “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o‘tgan davr mobaynida budjet amaliyotida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ular:

- davlat budjeti ijrosi g‘aznachilik tizimining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa nobudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- budjet tasnifi, budjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog‘liq bo‘lib, budjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Budjet tizimi to‘g‘risida”gi hamda “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Budjet Kodeksida o‘z aksini topdi.

Budjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amalga kiritilayotgan yangi Budjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, budjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Yangi Budjet Kodeksi budjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, budjet amaliyotida mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, budjet

jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va budget jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Budget Kodeksining g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq alohida qismi davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil etish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish, budgetdan mablag' oluvchilar xarajatlari to'lovini amalga oshirish, davlat xaridlarini tashkil qilish, G'aznachilikning yagona g'azna hisobraqamini yuritish kabi masalalarni tartibga solishga qaratilgan.

I bob bo'yicha xulosa

Har qanday davlat va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish uchun kuchli ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa hamda boshqaruv organlarini saqlab turish zarur bo'ladi. Buning uchun rivojlangan budget tizimini yaratish, mamlakat hududidagi mavjud daromad manbalari va xarajat yo'nalishlari haqida aniq asoslangan tahliliy malumotlarga ega bo'lish talab etiladi. Davr talabidan kelib chiqib, davlat budjetining o'rta va uzoq istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish uchun ushbu malumotlarni aniq va o'z vaqtida taminlab beruvchi mexanizm sifatida G'aznachilik organlari oldiga davlat budjeti g'azna ijrosini tashkil qilish, davlat budjeti ijrosining buxgalteriya hisobi va xisobotini yuritish, davlat budjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

G'aznachilik davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham zamin yaratdi. Birinchidan, g'aznachilik davlat budjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va harajatlarni o'z hisobvaraqlarida jamlaydi. Mablag'larning Yagona g'azna hisobvarag'iga soliq va soliq bo'lmagan daromadlar ko'rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat budjeti xarajatlarini

o'z vaqtida to'lash uchun barqaror baza yaratadi. *Ikkinchidan*, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya'ni davlat budjetining maqsadli va to'g'ri foydalanilishi keyingi nazorat o'rnatish orqali amalga oshirilmaydi, budjet mablag'lari ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun ajratilmaydi. Mamlakatimizda Davlat moliyasi tizimini isloh qilish jarayonida amalga oshirilayotgan xar bir o'zgarishlar natijasida pirovard maqsad ko'zlanib ish yuritilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat budjeti g'azna ijrosining joriy etilishi davlat moliyasini boshqarishning mavjud tizimini yanada takomillashtirishga ko'maklashdi. G'aznachilikning faoliyati natijasi o'laroq, Moliya Vazirligida davlat moliyasining qisqa muddatli har kunlik holati to'g'risida tezkor ma'lumotlar olish imkoni yuzaga keldi, bu esa budjetning davlat qo'lidagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi. Budjetning g'azna ijrosi bilan qamrab olinayotgan jarayonlarning kengayib borishi bilan g'aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyat ortib boraveradi.

II BOB. MAHALLIY BUDJETLAR G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Mahalliy budjetlar g‘azna ijrosini tashkil etishda g‘aznachilik hududiy bo‘linmalarining faoliyati tahlili

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat budjetining g‘azna ijrosini joriy etish, budjet mablag‘larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo‘lib xizmat qildi. Prezident Qarorining ijro etilishi doirasida Moliya vazirligi huzuridagi “Davlat budjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi” hamda mahalliy moliya organlarining g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

PQ-594-son Qaror bilan Moliya vazirligi G‘aznachiligi zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi (2.1-rasmga qarang):

- davlat budjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlash, budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat budjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot tuzish;

- davlat budjeti mablag‘larini yagona g‘aznachilik hisobraqami, shuningdek tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta‘minlaydigan hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

budjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo‘naltiriladigan budjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan

2-rasm. Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari¹



¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarori asosida

tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar etkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga budjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat budjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish.

O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga zarur hollarda G'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berilgan.

Bugungi kunga kelib G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari shtatlari shakllantirilgan bo'lib, markaziy G'aznachilikka 92 ta, G'aznachilik hududiy bo'linmalariga 2261 ta, jami G'aznachilik tizimiga 2353 ta shtat birligi ajratilgan. Lekin davlat budjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olinayotgan jarayonlarni hisobga oladigan bo'lsak, g'aznachilik orqali budjet daromadlari va xarajatlari ijrosi, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlari ijrosi, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarfi ijrosi amalga oshirilayotganligini, bu bilan bog'liq bo'lgan ish hajmining ortib borayotganligini hisobga olib, G'aznachilik amaliyot boshqarmalari bo'linmalari shtatlari sonini qayta ko'rib chiqish zarurligini e'tirof etish lozim.

G'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Davlat budjetining g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Jumladan, O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati tuzilmasiga shunday yirik boshqarmalardan biri "Amaliyot boshqarmasi", "Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi" va "Davlat budjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi" singari boshqarmalar kiradi. O'z navbatida ushbu boshqarmalar tarkibiga bir qancha bo'limlar kiradi.


1) *Amaliyot boshqarmasi* tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish va narxlarini monitoring olib borish bo'limi;
- Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi;
- Mudofaa idoralari tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi;
- Huquq-tartibot tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi;
- Davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olish bo'limi;
- Hisob - kassa amaliyoti bo'limi;
- O'zbekiston Respublikasiga kirib keladigan barcha turdagi gumanitar yordam va texnik ko'mak vositalarining hisobi bo'limi.

2) *Metodologiya, moliyaviy resurslar va hisoblarni boshqarish boshqarmasi* tarkibida quyidagilar mavjud:

- Budjetning g'azna ijrosi metodologiyasi bo'limi;
- Moliyaviy resurslarni boshqarish bo'limi;
- Ichki va tashqi qarzlar bo'yicha hisob-kitoblar bo'limi;
- Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi.

3-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar G‘aznachilik boshqarmalarining tashkiliy tuzilishi¹



¹ “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007.

3) Davlat budjetining g'azna ijrosini jamlanma tahlil qilish va nazorat qilish boshqarmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat budjetining g'azna ijrosini jamlanma tahlil qilish bo'limi;
- G'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish bo'limi;
- Buxgalteriya hisobi va hisobotlari bo'limi.

PQ-594-son Qaror bilan shuningdek, G'aznachilik hududiy bo'linmalarining tashkiliy tuzilishi ham tasdiqlangan (3.5-rasmga qarang)

Moliya vazirligi G'aznachiligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, G'aznachilikning hududiy bo'linmalari quyidagi ishlarni bajaradi:

- budjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun g'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

- yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobraqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisobraqamidan yoki g'aznachilikning boshqa hisobraqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida g'aznachilik hisobraqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi;

- budjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun g'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobraqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

- manbalar bo'yicha tegishli budjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritadi;

- moliya organlarining topshirig‘i bo‘yicha yuqori budjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subventsiyalar, budjet ssudalari summasini va boshqa to‘lovlarni quyi budjetlarning shaxsiy g‘aznachilik hisobraqamlariga o‘tkazadi;

- budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- budjetdan mablag‘ oluvchilar nomidan ro‘yxatga olingan shartnomalarda yoki boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko‘rsatuvchilar)ning bevosita bank hisobraqamlariga to‘lovlarni amalga oshiradi;

- budjet tashkilotlarini, jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan budjet mablag‘laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta‘minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini hamda qoidaga ko‘ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi;

- schyot-fakturalar va tovarlar etkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar asosida budjet mablag‘i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi va boshqa ishlarni amalga oshiradi.

2.2. G‘aznachilikda davlat budjetining pul mablag‘larini rejalashtirish va boshqarish amaliyoti

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat budjetining g‘azna ijrosini joriy etish, budjet mablag‘larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib bormoqda. Bunda navbatdagi qadam bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi (28.02.2007.) y. PQ-594-son Qarorining qabul qilinishi bo'ldi. Ma'lumki, ushbu qarorning ijro etilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Mazkur qaror bilan Moliya vazirligi G'aznachiligi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar ichida quyidagilar ham bor:

- davlat budjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- davlat budjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish.

Bu vazifalardan kelib chiqqan holda, G'aznachilik Davlat budjetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish bilan bog'liq aniq faoliyatlarni amalga oshiradi.

Uning bu boradagi faoliyati "Davlat budjetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizom"¹ bilan tartibga solinadi.


Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, davlat budjetining pul mablag'larini boshqarish deganda budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlaridagi (yagona g'azna hisobvarag'idagi) hamda Moliya vazirligi G'aznachiligi valyuta hisobvaraqlaridagi (milliy va xorijiy valyutadagi) pul mablag'larini boshqarish tushuniladi.

Davlat budjeti (milliy va xorijiy valyutadagi) pul mablag'larini boshqarishning maqsadlari² quyidagilardan iborat (4-rasmga qarang):

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 6 maydagi 39-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2010 yil 17 iyunda 2112-son bilan ro'yxatga olingan.

² O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 02.08.2011 y. 2112-1-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirining Buyrug'i tahriridagi xatboshi

4-rasm. Davlat budjeti pul mablag‘larini boshqarishning mazmuni va maqsadlari¹



- budjetlarning daromadlar va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini operativ bartaraf etish;

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirish. Bu borada ayniqsa ish haqi va pensiya to‘lovlarining o‘z vaqtida to‘lanishiga katta e‘tibor qaratiladi.

¹ "Davlat budjetining pul mablag‘larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom" Adliya vazirligida 02.08.2011 y. 2112-1-son bilan ro‘yxatga olingan MV Buyrug‘i asosida tayyorlandi.

- YaG‘Hdagi hamda Moliya vazirligi G‘aznachiligi valyuta hisobvaraqlaridagi pul mablag‘laridan samarali foydalanish.

Budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirish va budjetlarning daromadlar va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini bartaraf etish uchun G‘aznachilik bo‘linmalari:

- g‘azna hisobvaraqlaridagi aylanma kassa mablag‘larini belgilangan tartibda ishlatishi;

- tegishli budjetlar tomonidan budjet ssudalari olinishi tashabbusi bilan chiqishi;

- mablag‘larni jalb qilishda qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan boshqa manbalardan (respublika budjeti bo‘yicha) foydalanishi mumkin.

Davlat budjetining daromadlar va xarajatlar pul oqimini rejalashtirish maqsadida kassali rejalashtirish amalga oshiriladi. Kassali rejalashtirish quyidagilarga bo‘linadi:

- yillik kassali rejalashtirish;

- joriy (operativ) kassali rejalashtirish.

Respublika va mahalliy budjetlarning *yillik kassali rejalashtirilishi* tegishli budjetlarning oylik daromadlar va xarajatlar yoyilmasiga asosan 1- va 2- ilovalaridagi shaklga muvofiq amalga oshiriladi. Respublika va mahalliy budjetlarning tasdiqlangan daromad va xarajatlar yoyilmasi asosida Davlat budjetining daromad va xarajatlari yoyilmasi tuziladi va tasdiqlanadi.

Respublika va mahalliy budjetlarning *joriy kassali rejalashtirilishi* tegishli moliya yili uchun ma’lum muddatga (oy, oyning birinchi va ikkinchi yarmi), mos ravishda, G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan budjetlarning tegishli yillik kassa rejalari, shuningdek respublika va mahalliy budjetlarning oylik daromad prognoziga asosan amalga oshiriladi. Davlat budjeti bo‘yicha joriy kassali rejalashtirilish respublika va mahalliy budjetlarning joriy kassali rejalashtirilishi natijasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Daromadlarning prognozi:

respublika budjeti bo'yicha - har oyda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan respublika budjetining chorak hajmi doirasida, unda mavjud ma'lumot (axborot)lar asosida hamda tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmalari orqali olingan joylardagi tegishli davlat soliq xizmati organlaridan olingan, 3-ilovadagi shaklga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan 3a-ilovadagi shaklga muvofiq taqdim qilingan, kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarga asosan;

tuman (shahar) mahalliy budjetlari bo'yicha - hududiy moliya organlari tomonidan o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan tegishli budjetlarning chorak hajmlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining tuman (shahar) bo'linmalari bilan birgalikda 4-ilovadagi shaklga muvofiq, ularda mavjud ma'lumot (axborot)lar asosida hamda joylardagi tegishli davlat soliq xizmati organlari tomonidan 4-a-ilovadagi shaklga muvofiq taqdim qilingan kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarga asosan tuziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari bo'yicha daromadlar prognozi Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari bilan birgalikda, ularda mavjud ma'lumot (axborot)lar asosida hamda tuman va shahar G'aznachilik bo'linmalari orqali joylardagi tegishli davlat soliq xizmati organlaridan olingan, kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarga asosan tuziladi.

Budjetga kutilayotgan tushumlarning prognoz oyi uchun umumiy summalarining hisob-kitobida tuman (shahar) soliq inspeksiyasi va tegishli G'aznachilik bo'linmalari prognoz davrida tushmay qolishi mumkin bo'lgan bir martalik (doimiy bo'lmagan) tushumlarni e'tiborga olishga majburlar.

Bunday tushumlarga quyidagilar kiradi:

- fermer xo‘jaliklariga Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hisob-kitob Jamg‘armasi tizimi bo‘yicha yo‘naltiriladigan maqsadli transh mablag‘lar;

- O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining tashqi savdo kompaniyalaridan "O‘zpaxtasanoat" uyushmasi korxonalariga tushadigan mablag‘lar;

- "O‘zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi korxonalari valyuta tushumining qisman sotuvidan tushadigan mablag‘lar;

- budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar oldidagi kreditor qarzdorlikni to‘lash uchun tushadigan markazlashgan mablag‘lar;

- bir martalik tusga ega boshqa turdagi tushumlar.

Tuman (shahar) soliq inspeksiyasi kutilayotgan tushumlarda inobatga olinmagan, bir martalik tusga ega tushumlar tushganda, tuman (shahar) G‘aznachilik bo‘linmalariga ilgari taqdim qilingan, kutilayotgan tushumlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga o‘zgartirish kiritishga haqlidir.

Budjetdan mablag‘ oluvchilar va xarajatlar turlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash tegishli G‘aznachilik bo‘linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘rnatilgan ustuvorliklar, shuningdek oylik daromadlar tushumi prognozi va tasdiqlangan oylik xarajatlar yoyilmasi asosida G‘aznachilik bo‘linmalari budjetdan mablag‘ oluvchilarga xarajatlarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma (XTR)lar beradi.

Budjetdan mablag‘ oluvchilar faqat oylar kesimida berilgan XTR summolari doirasida yuridik va moliyaviy majburiyatlar oladi hamda xarajatlar to‘lovini amalga oshiradi.

Daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi kassa uzilishlarini bartaraf etish maqsadida XTR faqat tegishli davrda YaG‘Hga tushishi kutilayotgan summalar doirasida beriladi.

O‘z vaqtida tushmagan daromadlar natijasida vujudga kelgan vaqtinchalik kassa uzilishlari holatida G‘aznachilik bo‘linmalari "Qoraqalpog‘iston

Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga budjet ssudalarini berish va olingan budjet ssudalarini qaytarish tartibi to'g'risida"gi Nizomda¹ ko'zda tutilgan tartibga ko'ra tegishli budjetlar uchun rejadan tashqari budjet ssudalarini jalb qilish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Buning uchun G'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlariga asos bo'luvchi kerakli hisob-kitoblarni ilova qilgan holda budjet ssudasiga bo'lgan talab to'g'risidagi xatni yuboradi.

Xarajatlar to'lovi ruxsatnomasi G'aznachilik bo'linmalari tomonidan har bir budjetdan mablag' oluvchiga budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar baza smetasi summasi doirasida 5- va 6-ilovalardagi shaklga muvofiq beriladi.

Respublika budjetidan va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjetdan mablag' oluvchilar uchun XTRlarni berish qoida tariqasida oyda bir marta amalga oshiriladi.

XTR 7-ilovada ko'rsatilgan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ish haqidan ajratmalar, kapital qo'yilmalar xarajatlari, kommunal xizmatlar va boshqa xarajatlar, bir yilga tuziladigan shartnomalar bo'yicha xarajatlar uchun butun moliyaviy yilga beriladi. Yillik shartnomalar tuzilmaydigan boshqa xarajatlar uchun XTR bir oy muddatga beriladi.

XTRlar respublika budjetidan moliyalashtiriluvchi budjetdan mablag' oluvchilarga, mahalliy budjetlardan moliyalashtiriluvchi budjetdan mablag' oluvchilarga joriy kassa rejalariga asosan shakllantirilishi mumkin. Bunda, agarda daromadlar tushumi tegishli oyning oxirida kutilsa, XTRlar daromadlarning haqiqiy tushumiga qarab beriladi.

XTR summalarini hisoblashda xarajatlarni moliyalashtirishning quyidagi sanalarini inobatga olish lozim:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar - har oyning 1 - 5 sanalarida 60% miqdorida, har oyning 15 - 20 sanalarida 40% miqdorida, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno;

¹ Ro'yxat raqami № 1052, 19.07.2001 y. O'zR vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2001 yil, 3-4-son

**G‘aznachilikda budget tashkilotlari xarajatlarini to‘lash miqdorlari
va sanalari¹**

№	Xarajat turi	To‘lov sanasi	Mo‘lov miqdori
1.	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar	har oyning 1 - 5 sanalarida	60%
		har oyning 15 - 20 sanalarida	40%
2.	Yagona ijtimoiy to‘lov	har oyning 1 - 5 sanalarida	100%
3.	Ijtimoiy nafaqalar (voyaga etmagan bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar)	har oyning 1 - 15 sanalarida	100%

- yagona ijtimoiy to‘lov - har oyning 1 - 5 sanalarida;
- ijtimoiy nafaqalar (voyaga etmagan bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar) - har oyning 1 - 15 sanalarida.

XTR berilgan, biroq hali yuridik va moliyaviy majburiyatlar olinmagan, shuningdek kassa xarajatlari amalga oshirilmagan budgetdan mablag‘ oluvchilarga ajratilgan budget mablag‘larining summasini kamaytirish zaruriyati paydo bo‘lsa, G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ilgari berilgan XTR summalarini kamaytirish maqsadida minus ishorasi bilan XTR beriladi. Bundan so‘ng tegishli moliya organlari tomonidan G‘aznachilik bo‘linmalari bilan birgalikda budgetdan ajratilgan mablag‘lar summalarini aniqlashtirish choralari amalga oshiriladi.

Tasdiqlangan budgetlar doirasida XTRLarni berish uchun javobgarlik tegishli G‘aznachilik bo‘linmalariga yuklatiladi. Daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi rejadan tashqari kassa uzilishlari holatlarida budget ssudalarini jalb qilish yoki budgetdan ajratilgan mablag‘larga tegishli aniqliklar kiritish bo‘yicha

¹ “Davlat budgetining pul mablag‘larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida

o‘z vaqtida chora-tadbirlar amalga oshirishi uchun moliya organlari javobgar bo‘ladi.

Budjetdan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari va bosh hisobchilari qonun hujjatlariga muvofiq yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish hamda berilgan XTR summolari doirasida kassa xarajatlarini amalga oshirishga javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish hamda berilgan XTR summolari doirasida kassa xarajatlarini amalga oshirish orqali budjet mablag‘larini samarali boshqarish va davlat mablag‘larining iqtisod rejimiga rioya qilgan holda maqsadli ishlatilishini ta‘minlashga qaratilgan.

2.3. Mahalliy budjetlar g‘azna ijrosida dastlabki va joriy budjet nazoratini olib borish amaliyoti

Bizga ma‘lumki, G‘aznachilik va uning joylardagi hududiy organlari budjetning g‘azna ijrosini tashkil qilish bilan birgalikda, budjet ijrosining dastlabki va joriy nazoratini ham olib boradi. G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat turlarining biri – g‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish hisoblanadi.


“G‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi” g‘aznachilikning nazorat faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjat bo‘lib, u “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2007 yil 28 maydagi 74-sonli buyrug‘i va O‘zbekiston

Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Gʻaznachilikda gʻaznachilik operatsiyalari nazorat qilish Moliya vazirligi tarkibiy boʻlinmasi boʻlgan Davlat budjeti gʻazna ijrosini yigʻma tahlil qilish va nazorat qilish boshqarmasiga yuklatilgan.

Gʻaznachilikda gʻaznachilik operatsiyalarini nazorat qilishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat (5-rasm):

5-rasm. Gʻaznachilikda gʻaznachilik operatsiyalarini nazorat qilish¹



- barcha turdagi gʻaznachilik operatsiyalarini amalga oshirilishida meʼyoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilayotganligini aniqlash;
- gʻaznachilik operatsiyalarini amalga oshirish jarayoni bilan bogʻliq riskni aniqlash, ularga baho berish;
- nazorat natijalari yuzasidan tegishli taklif, tavsiya, koʻrsatma va taqdimnomalar ishlab chiqish hamda Gʻaznachilik rahbariyatiga taqdim etish.

¹ “Gʻaznachilik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi” nomli normativ-huquqiy hujjat asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

G‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi (6-rasm):

6-rasm. G‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish yo‘nalishlari¹



1. Budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetasini belgilangan tartibda qabul qilib olish va “G‘aznachilik” dasturiy majmuiga kiritishda quyidagilar tekshiriladi:

- budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetasining moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ro‘yxatga olish kartochkasi mavjudligi, kartochkada manzil va bank rekvizitlari to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi;

- xarajatlar smetasida bazaviy xarajatlari (indeksatsiyasiz) va indeksatsiya xarajatlari ilovalari, shuningdek xarajatlarning oyma-oy taqsimoti mavjudligi, budjetdan mablag‘ oluvchilar xarajatlari smetasining to‘liq qabul

¹ “G‘aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi” nomli normativ-huquqiy hujjat asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

qilib olinganligi va yil mobaynida xarajatlar smetasiga kiritilgan o'zgartirishlar Dasturga to'g'ri kiritilganligi;

- hududiy g'azna hisobvarag'iga o'tgan hududlarda budjetdan mablag' oluvchilarga shaxsiy hisobvaraqlarning har bir xarajatlar smetasi bo'yicha o'z vaqtida va to'g'ri ochilganligi, shaxsiy hisobvaraqlarni ro'yxatga olish jurnalining yuritayotganligi, unda ma'lumotlarning sifatli va tartib bilan qayd etilayotganligi;

- shaxsiy hisobvaraqlarni ochish uchun budjetdan mablag' oluvchilarning belgilangan tartibdagi arizasi, quyi budjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxati, imzo namunasi va muhr namunalari, tilxat (majburiyat), ishonchnoma, kafolat xati, kassir pasporti nusxasining mavjudligi va sifatli to'ldirilganligi;

- g'azna hisobvaraqlaridan xarajatlarni amalga oshirish uchun Moliya vazirligi G'aznachiligi, uning hududiy bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatuvchi banklarga mansabdor va mas'ul shaxslarning imzo namunalari belgilangan tartibda hamda o'z vaqtida taqdim etilganligi.

2. Budjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilar va buyurtmachilarning pudratchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazilishida:

a) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda 2007-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidolari"da belgilangan tartiblarga ko'ra quyidagilar nazorat qilinadi:

- shartnoma, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ularga ilova qilingan hujjatlarning bittadan asl va ko'chirma nusxalari taqdim qilinganligi;

- to'lov jadvali tuzilganligi va uning shartnomadagi ma'lumotlarga, xarajatlar smetasidagi oyma-oy taqsimotga mosligi hamda to'liq rasmiylashtirilganligi;

- to'lov jadvalida uni qabul qilingan kuni va ma'sul shaxs imzosi mavjudligi va shartnoma qabul qilingandan so'ng 3 kun muddat ichida tekshirilib Dasturga o'z vaqtida kiritilganligi;

- shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha)larda tegishli G'aznachilik bo'linmalarining tamg'asi, muhri va mansabdor shaxsi imzosi, ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi mavjudligi.

b) O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustda qabul qilingan 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi talablariga ko'ra quyidagilar nazorat qilinadi:

- budjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar etkazib beruvchilar o'rtasida tuziladigan xo'jalik shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha) larida etkazib beriladigan tovar(ish, xizmat)larning miqdori, sifati, assortimenti (spetsifikatsiyasi) va bahosi, shartnomaning bajarilish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi va taraflarning majburiyatlari belgilanganligi;

- xo'jalik shartnomasida shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki zarur darajada bajarilmaganda tomonlarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi hamda taraflarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va manzili nazarda tutilganligi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan (15 foiz) miqdorda avans to'lovlarining summa va foizi ko'rsatilganligi;

- shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha) larda yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirilib, ularning imzolari mavjud holda tuzilganligi;

- eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq bo'lgan summadagi xo'jalik shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha) larida yuridik xizmatning yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasi mavjudligi;

- xulosaga, qoida tariqasida xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi, shartnoma shartlarining va taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi ko'rsatib o'tilganligi.

v) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli Qaroriga asosan quyidagilar nazorat qilinadi:

- shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha) lar belgilangan tartibda eng yaxshi tanlov takliflarini tanlab olish asosida tuzilganligi va 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bitta kontrakt bo'yicha tovarlar etkazib berishni tender asosida tanlab olinganligi hamda ularning bayonnomalari mavjudligi va tasdiqlanganligi;

- 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo'yicha etkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko'ra quyidagi yo'llar bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o'tkazmasdan amalga oshirilganligi;

- shartnomalarda ko'rsatilgan xarajatlarning budjet tasnifiga va xarajatlar smetasiga mosligi, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchilarning xalq xo'jaligi tarmoqlari tasnifnomasiga to'g'ri kelishi va uni tasdiqlovchi guvohnoma, litsenziya yoki boshqa hujjatlari mavjudligi;

- shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha)lardagi ma'lumotlarning, jumladan sana, raqam, summa, tegishli kodi, bo'nak foizi, bank rekvizitlari, tovar etkazib berish muddatlarining dasturga to'g'ri va to'liq kiritilganligi;

- xo'jalik shartnomalari xarajatlar smetasidagi mablag'lar doirasida tuzilgan holda ro'yxatdan o'tkazilganligi;

- qaytarilgan shartnoma (o'zgartirish va qo'shimcha) lar hisobining yuritilayotganligi.

Yuqoridagi jadvalda (3-jadval) Toshkent shahar mahalliy budjetidan mablag' oluvchilarning 2015 yil aprel oyida qaytarilgan shartnomalar to'g'risida ma'lumot keltirilgan bo'lib, ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, qaytarilgan shartnomalar asosan budjet mablag'lari yuzasidan tuzilgan. Qaytarilgan shartnomalarning 16,6 foizini maqsadsiz taqdim qilingan shartnomalar, 8,3 foizini smetadan ortiqcha summaga taqdim qilingan shartnomalar, 9,7 foizini belgilangan o'rtacha narxdan oshgan summaga taqdim qilingan shartnomalar, 11,7 foizini huquqshunos xulosasi (imszosi) mavjud bo'lmagan shartnomalar tashkil qiladi. 53,7 foiz shartnomalar boshqa sabablarga ko'ra qaytarilgan.

**Toshkent shahar mahalliy budjetidan mablag' oluvchilarning 2015 yil aprel oyida
qaytarilgan shartnomalar to'g'risida**

MA'LUMOT¹

№	Ko'rsatkichlar	Budjet mablag'lari bo'yicha			Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari bo'yicha		
		Shartno malar soni	Shartnoma summasi	Jamiga nisbatan ulushi	Shartno malar soni	Shartnoma summasi	Jamiga nisbatan ulushi
1.	Jami qaytarilgan shartnomalar, shundan:	145	7 809 368,06	100,0	1	550 000,00	100,0
2.	Maqsadsiz taqdim qilingan shartnomalar	24	1 666 603,63	16,6	1	550 000,00	100,0
3.	Smetadan ortiqcha summaga taqdim qilingan shartnomalar	12	4 749 947,70	8,3	0	0,00	
4.	Belgilangan o'rtacha narxdan oshgan summaga taqdim qilingan shartnomalar	14	27 739,80	9,7	0	0,00	
5.	Huquqshunos xulosasi (imszosi) mavjud bo'lmagan shartnomalar	17	459 777,70	11,7	0	0,00	
6.	Boshqalar	78	905 299,23	53,7	0	0,00	

¹ Toshkent shahar G'aznachilik Boshqarmasining hisobotlari asosida tuzildi

Bundan tashqari, G'aznachilikning mutasaddi bo'linmalari va mas'ul xodimlari shartnomani ro'yxatdan o'tkazish chog'ida aniqlangan kamchiliklarni shartnomalarni taqdim etgan tashkilotlar e'tiboriga etkazadilar. 2.3-jadvalda Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan shartnomalarni ro'yxatga olishda olib borilgan nazorat natijasida aniqlangan va tashkilotlar rahbarlariga yetkazilgan ayrim kamchiliklar ko'rsatilgan. Nazorat natijalaridan kelib chiqqan holda, shartnomaviy huquqiy munosabatlardagi jarayonlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishiga erishish maqsadida kelgusida shu kabi xato-kamchiliklarning takrorlanmasligi hamda hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim qilishga jiddiyroq ahamiyat qaratish yuzasidan G'aznachilik bo'linmalari tashkilotlar rahbarlariga tegishli ko'rsatmalar beradilar.

3. Moliyaviy majburiyatlar bilan bog'liq hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishda quyidagilar nazorat qilinadi:

- hisob-fakturalarda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2008 yil 21 yanvarda 1760-son bilan ro'yxatga olingan Yo'riqnomaga asosan hisobvaraqa-fakturaning tartib raqami va sanasi, ilova qilinadigan, yuklab jo'natiladigan tovarlar hujjatlari (shartnomalar) raqami va sanasi, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchi va budjetdan mablag' oluvchining nomi, manzili, STIR va OKONX bo'yicha tarmoq kodi, shartnomada ko'rsatilgan rekvizitlarning mosligi;

- hisob-faktura jadvallarini to'ldirishda tovar(ish, xizmat)lar nomi, o'lchov birligi, miqdori, QQSsiz narxi, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (20 yoki 0 foiz), hisobvaraqa-fakturaning yakunlovchi summalarining jamlangan summasi, ushbu nomdagi tovar jami sonining QQSsiz qiymati, tovar (ish, xizmat) etkazib beruvchining rahbar va bosh hisobchisi imzosi va muhrining mavjudligi, shuningdek aktsizlanadigan mahsulot bo'yicha aktsiz stavkasi va summasi aks ettirilganligi.

Quyidagi jadvalda Toshkent shahar Shayxontoxur tuman G'aznachilik bo'limi, Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlar bo'limining

Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan 2014 yil davomida ro'yxatlan o'tkazilmay qaytarilgan shartnomalar to'g'risida ma'lumot¹

№	Tashkilot nomi	Mol etkazib beruvchi tashkilot nomi	Shartnoma soni, sanasi	Shartnoma summasi, so'm	Aniqlangan kamchiliklar
1.	Toshkent shahar IIBB YHXB huzuridagi ixtisoslashtirilgan montaj qilish va foydalanish boshqarmasi	SP OAO "UZKABEL"	063-214/13, 14.01.2014	14 890 764	1) to'lov jadvalida oldindan to'lov miqdori qaysi oyda to'lanishi ko'rsatilmagan; 2) shartnomaning 3.3, 3.4, 10.2-bandlari xato; 3) tanlov bayonnomasi noto'g'ri rasmiylashtirilgan; 4) tijorat takliflarida mahsulotlarning narxi QQS yoki QQSsiz taklif qilinayotganligi ko'rsatilmagan; 5) "Elektrmashsavdo" MChJ tijorat taklifida spetsifikatsiya ilova qilinmagan; 6) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan
		"OSU" MChJ	9-son, 17.01.2014.	518 460	1) shartnomada oldindan to'lov miqdori ko'rsatilmagan; 2) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan; 3) mahsulot etkazib beruvchining guvohnoma va litsenziyasida korxona rahbari tomonidan asliga to'g'riligi tasdiqlab imzolanmagan; 4) to'lov jadvali to'ldirilmagan; 5) shartnomaning 3.1-bandi xato.
		"Shilonzor ulgurji savdo" MChJ	87-son, 23.01.2014	4 020 000	1) to'lov jadvalida oldindan to'lov miqdori qaysi oyda to'lanishi ko'rsatilmagan; 2) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan; 3) mahsulot etkazib beruvchining guvohnoma va litsenziyasida korxona rahbari tomonidan asliga to'g'riligi tasdiqlab imzolanmagan;

¹ Toshkent shahar G'aznachilik Boshqarmasining hisobotlari asosida tuzildi

					4) tanlov bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilmagan; 5) "Elektrmashsavdo" MChJ tijorat taklifida spetsifikatsiya ilova qilinmagan.
		"PROFTEXNOTRA DE" XK	12/13-son, 14.01.2014	560 000	1) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan; 2) to'lov jadvalida oldindan to'lov miqdori qaysi oyda to'lanishi ko'rsatilmagan
		"Toshkent truba zavodi" QK	721-sonli, 24.01.2014	12 210 544	1) tanlov bayonnomasi noto'g'ri rasmiylashtirilgan; 2) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan
		"ZAMONAVIY MAXSULOT ISHLAB CHIQRISH" MChJ	1-sonli, 03.01.2014	10 800 000	tanlov bayonnomasi noto'g'ri rasmiylashtirilgan; 2) shartnoma rekvizitiga sharikli ruchkada qo'shimcha kiritilgan. 3) tijorat takliflarida mahsulotlarning narxi QQS yoki QQSsiz taklif qilinayotganligi ko'rsatilmagan
2.	"Toshshaharnur" DUK	"Trans-Bat Nam Servis" MChJ	1095199- sonli, 29.10.2014	6 420 000	1) shartnoma birjadan ro'yxatdan o'tkazilmagan; 2) shartnoma 1.1-bandining bir qismi to'ldirilmagan; 3) tovar etkazib beruvchining nomi to'lovlar jadvalida noto'g'ri ko'rsatilgan
		"Mohiza-Nur" MChJ	1095250- sonli, 19.11.2014	6 695 767	elektron savdo amalga oshganligini tasdiqlovchi hujjat (<i>davlat xaridlari bo'yicha elektron auksion savdo bayonnomasi</i>) nusxasi ilova qilingan bo'lsa-da, shartnoma birjadan ro'yxatdan o'tkazilmagan
		"Umarov Botir Savdo" MChJ	411-sonli, 23.11.2014	4 500 000	" <i>Generator v sbore Damas</i> " nomi bilan aks ettirilgan tovar uchun elektron auksion savdo bayonnomasiga ko'ra 214 500 so'mlik baho bilan talabnoma (buyurtmanoma) kiritilgan bo'lsa-da, shartnoma spetsifikatsiyasida qimmatroq – 241 200 so'mdan to'lab berilishi ko'rsatilgan
		"Nurelektrsozlash" MChJ	1-KR-sonli, 27.11.2014	31 345 000	Raqobatchilar tijorat takliflarida va tanlov bayonnomasida ishning umumiy qiymati "QQSsiz" deb ko'rsatilgan bo'lishiga qaramasdan shartnomaning 2.1-bandida ish qiymati " <i>soliqlarni o'z ichiga olgan holda</i> " izohi bilan birga qayd qilingan

ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalarning 14,1-5,4 foizi - shartnoma orqali amalga oshirish lozim bo'lgan to'lovlarning shartnomasiz taqdim etilganligi tufayli, 2,2-0,9 foizi - shartnoma summasidan ortiqcha summaga taqdim etilganligi tufayli, 2,5-0,2 foizi - hisob faktura summasidan ortiqcha summada taqdim etilganligi tufayli, 19,4-6,4 foizi - smetadan ortiqcha summaga taqdim etilganligi tufayli, 61,2-86,2 foizi – boshqa sabablarga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilmay qaytarilganligini ko'rish mumkin (5-jadval).

4. Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovlarini amalga oshirishda:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki budjetdan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqnomalari sanasi, raqami, to'lovchining va oluvchi bank rekvizitlarining to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, summaning xarajatlar smetasiga, shuningdek ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga hamda so'rovnoma mosligi, summaning so'zda va raqamda to'g'ri yozilganligi, g'aznachilik bo'linmalarining muhri, bo'lim boshlig'i va ma'sul shaxsning imzosi yoki budjetdan mablag' oluvchining muhri, rahbar va bosh hisobchi imzolari mavjudligi va mosligi;

- budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlarining I va II guruh mablag'lari birinchi navbatda to'lab berilayotganligi, shuningdek xarajatlarning II guruhi to'lanmasdan I guruh xarajatlari to'lovini amalga oshirish holatlari;

- budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari bo'yicha iqtisod qilingan (foydalanilmagan) rejali budjet ajratmalari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) hisobot davrining oxirgi ish kunida ularning Rivojlantirish jamg'armasiga asosli o'tkazilganligi, ularning haqiqatda iqtisod qilinganligi (foydalanilmaganligi) va iqtisod qilingan mablag'larda moliya organi rahbarining xulosasi mavjudligi;

- hududiy g'azna hisobvaraqlaridan naqd pul olish uchun so'rovnomalarning mavjudligi, ularga asosan berilgan cheklarning belgilangan

5 –jadval

Toshkent shahar Shayxontoxur tuman G‘aznachiligining to‘lov topshiriqnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ro‘yxatdan o‘tkazilmagan to‘lov topshiriqnomalari to‘g‘risida ma’lumot¹

№	Ko‘rsatkichlar	2014 yil, yanvar		2014 yil, aprel	
		soni	jamiga nisbatan foizda	soni	jamiga nisbatan foizda
1.	Ro‘yxatdan o‘tkazilgan to‘lov topshiriqnomalari	48070	---	11187	---
2.	Qaytarilgan to‘lov topshiriqnomalar, shundan:	945	100	645	100
2.1.	Shartnoma orqali amalga oshirish lozim bo‘lgan to‘lovlarning shartnomasiz taqdim etilganligi	133	14,1	35	5,4
2.2.	Shartnoma summasidan ortiqcha taqdim etilgan to‘lov topshiriqnomalari	21	2,2	6	0,9
2.3.	Hisob faktura summasidan ortiqcha taqdim etilgan to‘lov topshiriqnomalari	24	2,5	1	0,2
2.4.	Smetadan ortiqcha summaga taqdim etilgan to‘lov topshiriqnomalari (shartnomasiz amalga oshiriladigan to‘lovlar uchun)	183	19,4	41	6,4
2.5.	Belgilangan o‘rtacha narxdan oshgan summaga taqdim qilingan to‘lov topshiriqnomalari	6	0,6	6	0,9
2.6.	Boshqa sabablar	578	61,2	556	86,2

¹ Toshkent shahar Shayxontoxur tuman G‘aznachiligi hisobot ma’lumotlaridan olindi

- tartibda to'ldirilganligi va tasdiqlanganligi, ularni ro'yxatga olish daftarida qayd qilinganligi, Reestrining mavjudligi va ma'lumotlarni to'g'ri kiritilayotganligi; naqd pul olish cheklarining so'rovnoma, xarajatlar to'lovini amalga oshirish ruxsatnomasiga (XTR) mosligi va chek markalarini o'z vaqtida budjetdan mablag' oluvchilarga hamda chek koreshogini tegishli banklarga taqdim qilinganligi;

- xo'jalik shartnomalarisiz (hisob-fakturasiz) amalga oshirilayotgan (4-guruh bo'yicha) to'lovlarning (Sud qarorlari, bojxona to'lovlari, xabarnoma va boshqalar) qonuniy va to'g'ri rasmiylashtirilganligi;

- g'aznachilik bo'linmalari budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlari to'lovlarni kunlik bank ko'chirmalari bilan taqqoslash holati va to'lovlarning to'g'ri amalga oshirilishi;

- yuqori budjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subventsiyalar, beriladigan daromadlar budjet ssudalari summasi va boshqa to'lovlarni quyi budjetlarning g'aznachilik hisob raqamiga to'g'ri va o'z vaqtida belgilangan tartibda o'tkazilganligi;

- to'lov topshiriqnomalarning to'lov maqsadida budjet tasnifining kodi (xarajatlar moddasi) va uning ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomadagi kodga mosligi, shartnoma sanasi, raqami, to'lov turi (olindan to'lov yoki to'lov) va foizi, hududiy g'azna hisobvarag'iga o'tgan hududlarda budjetdan mablag' oluvchining nomi, shaxsiy hisobvarag'i, STIR ko'rsatilganligi;

- to'lovlarni amalga oshirish uchun hisob-faktura, dalolatnoma va boshqa hujjatlarning mavjudligi hamda ularning barcha rekvizitlarining shartnomaga va to'lov topshiriqnomaga mosligi va boshqalar.

II bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari g'azna ijrosini amalga oshirish va bu jarayonda ularga yuklatilgan nazorat tadbirlarini tizimli olib borishlari natijasida

G‘aznachilikning oldiga qo‘yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga erishilmoqda.

Davlat budjetining g‘azna ijrosini joriy etish, budjet mablag‘larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib borayotgan bugungi davrda davlat budjetining g‘azna ijrosini tatbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning ta’sirchan ishlashini ta’minlash zarur. Buning uchun yuqoridagi paragraflarda bayon etilgan G‘aznachilik organlarining nazorat funksiyalarining mukammal bajarilishiga erishish, bu sohaga tajribali, bilimli, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni puxta egallagan, qonunchilikni va undagi o‘zgarishlarni yaxshi biladigan va ularni amaliyotda qo‘llay oladigan kadrlar tayyorlash tizimini jiddiy yaxshilash lozim.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLAR IJROSIDA G‘AZNACHILIK FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

3.1. Mahalliy budjetlar g‘azna ijrosini samarali tashkil etish yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 1 noyabrdagi PP-721 sonli Qaroriga muvofiq ravishda mamlakatimiz hududlarida “Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish” loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha negizida amaldagi davlat moliya tizimining faoliyatini yorituvchi informatsion tizimni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

2009-2012 yillar mobaynida nomi yuqorida keltirilgan qarorga muvofiq mamlakatimizda “Davlat moliya tizimini boshqarishning informatsion tizimi” deb nomlangan zamonaviylashtirilgan amaliy dastur bilan ta’minlash amalga oshirildi. Mazkur dastur yordamida butun respublikamiz hududida g‘aznachilik faoliyati nuqtai nazaridan davlat budjetining ijrosini, shu jumladan, uning daromadlari qismini ta’minlash bilan bog‘liq barcha jarayonlarni qamrab olishga imkoniyat yaratiladi.

Ayni vaqtda hozirgacha amal qilib kelayotgan, turli darajadagi budjetlar uchun birdek ochiq bo‘lgan tranzit tarzida harakatlanishi mumkin bo‘lgan daromad (tushum)lar kirim qilinadigan maxsus hisob-kitob raqamlari yopilib, ularning o‘rniga “Davlat moliyasini isloh qilish” majmuaviy dasturi bo‘yicha davlat budjetining daromadli qismiga kelib tushadigan tushumlar uchun alohida shaxsiy schyotlar ochilishi joriy etildi.

Moliya vazirligi G‘aznachiligi hamda uning joylardagi hududiy bo‘linmalarining funktsional faoliyatini amaliy va normativ-huquqiy jihatdan ta’minlash uchun tegishlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi o‘z zimmasiga yuklatilgan funktsional faoliyatni amalga oshirish davomida joriy qonunchilik

talablariga, shuningdek, ayni turdagi faoliyatga taalluqli jahon standartlariga muvofiq ish yuritilishi ta'minlanadi.

G'aznachilikning joriy paytdagi tashkiliy tuzilmalari "Davlat moliyasini isloh qilish" majmuaviy dasturining amaliyotga bevosita tadbiiq etilish vaqtiga kelib ma'lum darajada optimallashtiriladi. Buning uchun mavjud tizim negizida moddiy-texnik, informatsion va kadrlar bilan ta'minlanish jihatlaridan muayyan yangilanishlar qilinadi.

Davlat budjeti daromadlari bo'yicha g'azna ijrosini tashkil qilishni amalga oshirish borasida joylardagi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan quyidagi ustuvor vazifalar bajarilishi lozim:

- davlat budjetiga kelib tushgan mablag'larni ajratib berilishi lozim bo'lgan turli darajadagi budjetlarning hisob-kitob raqamlariga o'tkazib berish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish;

- davlat budjetining daromad qismi bo'yicha g'aznachilik funktsiyalarining bajarilishi yuzasidan tegishlicha hisobotlar tayyorlash va buxgalterlik hisobotlari olib borish, bajarilgan barcha funktsional jarayonlarga taalluqli ma'lumotlarni G'aznachilikning Bosh kitobida aks ettirib borish;

- davlat budjetining daromadlari qismi, davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha zarur ma'lumotlarni yig'ish, o'rganib chiqib tahlil qilish va olingan natijalarni mutasaddi davlat tashkilotlari (davlat soliq va bojxona organlari)ga taqdim etish;

- davlat budjetining daromad qismiga soliq va boshqa xil majburiy to'lovlarning tushirilishi, me'yoridan ortiqcha ushlanib qolingani soliq va boshqa xil majburiy to'lovlar summasining qaytarib berilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tegishlicha ma'lumot tayyorlash;

- "Bank - G'aznachilik" dasturi orqali Yagona g'azna hisobraqamiga budjetning kirim qismiga tushiriladigan tushumlarni qabul qilib olish operatsiyalarini bajarish;

– moliya masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutasaddi davlat organlariga turli darajadagi budjetlarning kiritim qismiga tushayotgan mablag‘lar haqida ma’lumotlar berib borish;

– joriy qonunchilik normalariga muvofiq davlat budjetining daromadli qismiga tushiriladigan mablag‘lar bilan ishlashga doir boshqa xil operatsiyalarni bajarish.

Ma’lumki, “Davlat moliyasini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish yo‘nalishlaridan biri sifatida budjet tasnifi, budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish belgilangan.

Budjet tasnifi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlaridan mablag‘ oluvchi tashkilotlarga qo‘llaniladi hamda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga”ga muvofiq, yangi budjet tasnifi 2011 yil 1 yanvardan amalga kiritildi.

Ushbu yo‘riqnomaga ko‘ra, *budjet tasnifi* O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalari guruhlanishi bo‘lib, davlat budjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida budjet ma’lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u budjet ma’lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma’lumotlari bilan qiyoslanishini ta’minlaydi.

Davlat budjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi budjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

21 koddan iborat bo‘lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to‘rt qismli ko‘rinishga ega:

- mablag‘lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- hududiy tasnif.

Xarajatlar tasnifi. Davlat budjeti, davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalar xarajatlari tasnifi barcha budjet darajalari xarajatlari guruhlanishini o‘zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish sektori birliklari asosiy funktsiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga budjet mablag‘larini yo‘naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlar tasnifi quyidagilardan iborat:

- mablag‘lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi;
- hududiy tasnif;
- xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;
- xarajatlarning iqtisodiy tasnifi (xarajatlar guruhi bo‘yicha);
- tashkiliy tasnif;

Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi ularni moliyalashtirishning ichki va tashqi *manbalari* bo‘yicha guruhlanishidan iborat.

Xulosa qilib aytganda, budjet amaliyotida amalga oshirilayotgan tadbirlar amaldagi budjet tasnifini ham takomillashtirishni taqozo etadi. G‘aznachilik tizimi samarali faoliyat qilishi uchun budjet daromadlari va xarajatlarining mukammal ishlab chiqilgan funktsional va iqtisodiy tasnifi bo‘lishi lozim. Davlat mablag‘lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini bank tizimidan G‘aznachilikka o‘tkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona G‘aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan budjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni o‘z vaqtida va aniq hisobini yuritishda G‘aznachilikning hisob-kitob schyotlari budjet daromadlari va xarajatlarining

tasniflash tizimiga mos kelishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, G‘aznachilikning ma’lumotlar bazasida barcha ma’lumotlar budjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

Davlat moliyasini isloh qilish loyihasining yana bir yo‘nalishi – bu budjet tashkilotlarida avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini joriy etish va uni G‘aznachilikning yagona axborot tizimi bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2013 yil 30 apreldagi 63-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimida hamda budjet tashkilotlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada takomillashtirish va joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘iga muvofiq, 2013 yil davomida “O‘zASBO” Kompyuter dasturini sinovdan o‘tkazish va bir qator mahalliy budjetlardan mablag‘ oluvchilarning hammasini “O‘zASBO” kompyuter dasturiga ulash ishlari olib borildi.

“O‘zASBO” kompyuter dasturi davlat budjetidan budjet mablag‘lari oluvchilarning, shu jumladan respublikaning barcha mintaqalarida joylashgan budjet tashkilotlarining moliyaviy-hisob bo‘limi xodimlari tomonidan buxgalteriya hisobi bo‘yicha operatsiyalarni yuritishni avtomatlashtirish jarayoni uchun mo‘ljallangan bo‘lib, budjet tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobini kompleks avtomatlashtirishni ta’minlaydi. “O‘zASBO” KD:

- budjet tashkilotlaridagi buxgalteriya hisobining to‘liq tsiklini o‘z ichiga olgan buxgalteriya hisobi bo‘yicha operatsiyalarni avtomatlashtiradi;

- “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bo‘yicha Yo‘riqnomasi”ning va budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga to‘liq muvofiqlikni ta’minlaydi;

- Moliya vazirligining ma’lumotlar markazida budjet tashkilotlari ma’lumotlarining markazlashtirilgan tarzda saqlanishi va yuqori ishonchliligini ta’minlaydi;

- “G‘aznachilik-4” KD va boshqa mavjud kompyuter dasturlari bilan integratsiyalashuv uchun keng imkoniyatlar beradi;

- budjet tashkilotlari mablag‘larini jiddiy tejaydi, shu jumladan Moliya vazirligi va moliya organlari bilan o‘zaro ta’sirlashuv asosida;

– budget tashkilotlari xodimlariga dasturdan foydalanish huquqini beradi, ular Moliya vazirligining Axborot-hisoblash markazidan olingan “O‘zASBO” KDga kirish uchun loginlar va parollarga muvofiq Moliya vazirligining dasturiy maydonchasidan foydalanishlari mumkin.

“O‘zASBO” KDni joriy etish bo‘yicha ishlar natijasida quyidagi maqsadlarga erishiladi:

– barcha budget tashkilotlari uchun yagona “O‘zASBO” KD versiyasi yaratilgan va qo‘llaniladi, bu unga o‘zgarishlarni markazlashtirilgan tarzda kiritish, shuningdek ma’lumotlarni ishonchli saqlash va rezervlashni ta’minlaydi;

– barcha mintaqalarda joylashgan budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha ma’lumotlar bazasi tuzilmasi yaratilgan;

– buxgalteriya hisobi va hisobotining yagona metodologiya bo‘yicha yuritilishini ta’minlaydigan markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

– tarixiy xronologiyani kuzatib borish, hisob davrlari, shu jumladan budget tashkilotlarining avvalgi yillardagi faoliyati davrlari bo‘yicha hisob yuritish imkoni berilgan;

– tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan analitik va sintetik hisob yuritish bo‘yicha registrlarni (vedomostlar, Bosh kitob va h.k.), turli joriy va davriy hisobotlarni (1-, 2-son shakllar, balans va unga ilovalar va h.k.) yuritish va ularni qog‘ozga tushirish imkonini beradi.

Dastur umumiy markazlashtirilgan serverga, saqlash va ma’lumotlarni ishlash bo‘yicha yagona tizimga ega bo‘lgan yagona integratsiyalangan apparat-dasturiy kompleksdir. Foydalanuvchilar dasturdan foydalanish uchun WEB-texnologiyalarni qo‘llagan holda Moliya vazirligining dasturiy maydoniga kiradilar (<http://www.mdm.uz>).

“O‘zASBO” KD tarkibiy tuzilmasi funktsionallikni boshqaruv darajalari bo‘yicha taqsimlashni, boshqa turdosh axborot tizimlari bilan informatsion o‘zaro ta’sirlashuvni o‘z ichiga oladi.

“O‘zASBO” KD amaliy dasturiy ta‘minotning boshqa tizimlar bilan o‘zaro axborot ta’sirlashuvi “G‘aznachilik” KD, shuningdek dasturiy komplekslar o‘rtasidagi himoyalangan aloqa kanallari orqali moliyaviy axborotning yagona ma’lumotlar bazasi bilan axborot ta’sirlashuvidan iborat.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborot “G‘aznachilik” KD dan “O‘zASBO” KDga quyidagi ma’lumotlar bilan almashiniladi:

- budjet tashkilotlarining “G‘aznachilik” KD da ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarida mablag‘larning harakati haqida axborotni berish;
- budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilari bilan ro‘yxatga olingan (qaytarilgan) shartnomalari haqida axborot;
- budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bilan bog‘liq boshqa axborot.

Dastur bir vaqtda 30000 tagacha foydalanuvchining qulay ishlashini ta‘minlay oladi. Bunda xodimlarning, dastur bilan bevosita ishlaydigan xodimning axborot texnologiyalari sohasidagi malakasi davlat sektoridagi ofis xodimining axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlariga qo‘yiladigan talablar bilan cheklanishi mumkin.

Budjet mablag‘larini oluvchilarning FES xodimlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya hisobi bo‘yicha hisobotlarni chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalarning, shuningdek ma’lumotlar bazasining ma’murlanishi Moliya vazirligi axborot-hisoblash markazi xodimi – bosh administrator tomonidan nazorat qilinadi, bu xodim foydalanuvchilar rollarini belgilaydi, ularga login va boshlang‘ich parolni beradi, barcha zarur ma’lumotnomalarni (Moliya vazirligining davlat budjeti bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda), shu jumladan buxgalteriya hisobi registrlari va tegishli hisobotlar registrlarini boshqaradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad va vazifalar tadrijiy rivojlanish asosida ma’lum darajada muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Erishilgan

natijalar esa davlat mablag‘larini samarali boshqarish, mablag‘larning harakati shaffofligiga erishish, budjet mablag‘larini sezilarli tejash, ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishiga erishish va pirovardida davlat budjetining samarali ijro etilishini ta’minlashda o‘z aksini topmoqda.

3.2. G‘aznachilik yagona axborot tizimining takomillashuvi

Hozirgi kunda davlat budjeti daromadlari va xarajatlari kassa ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisob-kitob raqami hamda hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari uchun ochilgan hisob-kitob raqamlari orqali amalga oshirilmoqda. Bunday tartibda faoliyat yuritish uchun uslubiy va texnikaviy asos vazifasini “G‘aznachilik” deb nomlangan maxsus majmuaviy dastur xizmat qilmoqda.

“Davlat moliyasini isloh qilish” majmuaviy dasturining turli modullari orasida tegishli informatsiyalar bilan almashinuv jarayonlari modullararo mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar paketning o‘zak qismida hamda modul tizimining alohida sozlash tizimlarida joylashtirilgan. Modul paketining o‘zak qismi normativ-spravochnik tipidagi informativ blokka ham ega. Ushbu informativ blok negizida bajariladigan operatsiyalar klassifikatori, G‘aznachilik hamda bank bo‘linmalari haqidagi spravochniklarda saqlab qo‘yiladi.

“Daromadlarni boshqarish” moduli yordamida davlat budjetiga kelib tushadigan soliq to‘lovlari va boshqa xil majburiy to‘lovlarning turlari va qaysi bir budjetga tushirilishi lozimligiga qarab ro‘yxatga olib borish, belgilab qo‘yilgan normativlarga muvofiq turli darajali budjetlarga tushiriladigan mablag‘larning kundalik taqsimlanishi haqida ma’lumotlar olish, Yagona g‘azna hisobraqamiga tushayotgan mablag‘lar haqidagi kundalik ma’lumotlarni jamlash, budjetga kundalik kelib tushgan soliq to‘lovlari va ularning taqsimoti haqida ma’lumotlar bilan tanishib borish mumkin bo‘ladi.

Davlat budjet(lari)ning kirim qismiga tushadigan mablag‘lar jumlasiga amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq joriy etilgan soliq to‘lovlari hamda boshqa xildagi majburiy to‘lovlar (ular haqidagi to‘liq ma’lumot “G‘aznachilik” dasturining spravochniklarida saqlanadi) kiritiladi. Soliq to‘lovchi sub’ektlar budjetga tushiriladigan mablag‘larni barcha bank bo‘linmalarida amalga oshirishi mumkin, o‘z navbatida mazkur bank bo‘linmalari qabul qilingan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahridagi Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKM) da ochilgan YaG‘HR ga tegishli maxsus hisob-kitob raqamiga o‘tkazib berishi lozim bo‘ladi. Budjetga to‘lanadigan to‘lovlar naqd pul ko‘rinishida yoxud pul o‘tkazish yo‘llari bilan amalga oshirilishi mumkin. To‘lov operatsiyalari pul o‘tkazish yo‘li bilan bajarilganida zimmasidagi majburiyatlarini bajaruvchi sub’ektning zarur rekvizitlari (daromadlar kirim qilinadigan shaxsiy hisob-kitob raqamining kodini, soliq to‘lovchining identifikatsion raqamini (INN), kirim operatsiyalarining administratori (DSI, Bojxona organi)ning kodini, to‘lovlar qachon amalga oshirilgani haqidagi ma’lumot, YaG‘HRning hisob-kitob raqami ochilgan agent-bankning kodini) aks ettirilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining bo‘linmalari taklif etilayotgan modul tizimining sozlovchi mexanizmlariga qanday ish tartibiga sozlanganiga qarab agent-bank beradigan ma’lumotlarni avtomatik tarzda yoki mexanik tarzda bajariladigan operatsiyalar yordamida qabul qilib olib, so‘ngra olingan ma’lumotlar tegishlicha tartibda ishlanganidan keyin turli darajali budjetlar bo‘yicha taqsimlab berishadi. Tushgan daromadlarni turli darajali budjetlar o‘rtasida taqsimlab berish operatsiyasi amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq daromadlarni budjetlar o‘rtasida taqsimlash normativlariga asoslanib tayyorlangan maxsus spravochniklarga tayanib avtomatik tarzda bajariladi. Mazkur spravochniklarga g‘aznachilik funktsiyasi hamda budjet operatsiyalarini bajarish bilan bog‘liq jarayonlarga taalluqli ma’lumotlarni kiritish tizim faoliyatiga “Davlat moliyasini isloh qilish” majmuaviy dasturining tadbiq etilishi davrida amalga oshiriladi. Bunda amaldagi qonunchilikka asosan

davlat budjetining daromadiga tushiriladigan mablagʻlarni turli darajali budjetlar orasida taqsimlab berish normativlari eʼtiborga olinadi.

Davlat budjetining kirim qismiga tushiriladigan mablagʻlarni turli darajali budjetlar orasida taqsimlab berish jarayonlari amaldagi normativlarga mos ravishda bajarilishi, shuningdek, “Davlat moliyasini isloh qilish” majmuaviy dasturining tegishli spravochniklari boʻyicha toʻlanishi lozim boʻladigan soliq summalarini toʻgʻri belgilab berilishi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatmoq uchun Gʻaznachilikning boʻlinmalarida masʼul xodimlar tayinlanib, ular normativ-spravochnik materiallariga taalluqli oʻzgarishlarni muntazam ravishda kuzatib bormogʻi kerak.

Davlat budjetining kirim qismiga tushiriladigan mablagʻlar Gʻaznachilikning YaGʻHR ga kelib tushgani haqida maʼlumot olinganidan keyin toʻplangan barcha daromadlar summasi haqidagi maʼlumotlar generatsiyalanib (bir erga jamlanib), tahlil qilinadi va shundan keyin jamgʻarilgan mablagʻlar darajasiga qarab tegishli budjetlar orasida taqsimlanadigan summalar miqdori aniqlanadi, buxgalteriya hisobini yuritish boʻyicha muayyan operatsiyalar bajariladi, avtomatik tarzda Gʻaznachilikning YaGʻHR ga kelib tushgan absolyut summalar hamda har xil budjetlarga ajratilgan mablagʻlar haqidagi maʼlumotlar shakllantirilib saqlab qoʻyiladi.

Ushbu modul Gʻaznachilikning YaGʻHR ga kelib tushgan mablagʻlarni qayd qilish va ular bilan bogʻliq turli xil kassa operatsiyalarini bajarish boʻyicha quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- Gʻaznachilikning YaGʻHR ga kelib tushgan kirimlar hisobini yuritish (jumladan, kundalik tartibda YaGʻH ga kelib tushgan summalar hamda turli xil budjetlarga qaerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmagan mablagʻlar haqidagi tegishli maʼlumotlarni tahlil qilish va ishlash);

- belgilangan normadan ortiq miqdorlarda ilgariroq budjetga oʻtkazilgan mablagʻlarni qaytarib berish hamda turli xil budjetlarga qaerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmay qolgan mablagʻlarni egasini aniqlab qaytarib berish;

– soliqning biron bir turi bo'yicha belgilangan normadan ortiq miqdorlarda budjetga o'tkazilgan mablag'larni boshqa turdagi soliq to'lovlari bo'yicha mavjud qarzdorlik hisobiga o'tkazib tafovut o'rmini qoplash (amalda bo'lgan turli xil soliq to'lovlari bo'yicha balans hosil qilishga xizmat qiladi), shuningdek, tasniflanib ulgurilmagan kirimlarni turli xil darajadagi budjetlarga ajratib berish;

– mamlakat miqyosida yig'iladigan soliq va boshqa xildagi majburiy to'lovlarni turli darajadagi budjetlarga o'tkazib berish imkonini beradi; eng muhimi shuki, to'planadigan mablag'larni bir xilda quyi darajali budjetdan yuqoridagisiga va aksincha, yuqori darajadagi budjetdan quyi darajadagi budjetlarga o'tkazib bera oladi;

– o'zaro hisob-kitoblarni qayd etish asosida barcha kassa operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni jamlash uchun qulaylik tug'diradi, bunday imkoniyatning yaratilishi oqibat natijada aniq maqsadga yo'naltirilgan loyihalar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish vaqtida tomonlarning o'zaro hisob-kitoblarini qayd etish imkonini beradi;

– dastur ish jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab tuzatish imkonini ham beradi;

– budjetga kelayotgan kirimlarni hamda ularni qaytarib berish bilan bog'liq kassa operatsiyalari bo'yicha turlicha hisobot tayyorlanadi, shuni hisobga olib turib turli xil hisobotlarni tayyorlash mumkin bo'ladi;

– modul tizimi negizida normativ-spravochnik ma'lumotlarini o'rnatish va sozlash imkonini beradi (ushbu modul asosidagi funktsional vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun yuqorida aytib o'tilgan spravochniklar tizimga kiritib qo'yilishi kerak);

– modul tizimi negizida memorial orderlar haqidagi (jumladan, analitik buxgalteriya hisoblariga oid yozuvlar qayd etiladigan jamlangan (yig'ilgan, terma) memorial orderlarning tuzilgan vaqti, qayd qilish raqami haqidagi tegishli ma'lumotlarni) spravochnik o'rnatilishi mumkin;

– buxgalteriya hisoblar rejasining tuzilishi bilan bog‘liq jarayonlar (xususan, budjetning kirim qismi bo‘yicha hisobga olinadigan barcha kassa operatsiyalarini bajarishga doir turli xildagi analitik materiallarning ro‘yxati)ga oid rasmiy yozishma materiallari bo‘yicha spravochnik o‘rnatishga imkon beradi.

Tizim bo‘yicha turli xil ma‘lumotlarni qabul qilib olish hamda masofaga uzatish uchun maxsus – “Ma‘lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish” deb nomlangan modul ham yaratilgan. G‘aznachilikning turli bo‘linmalari hamda agentlik vazifasini bajaruvchi bank tizimi o‘rtasida operativ tarzda kerakli ma‘lumotlar bilan almashinuv jarayonini yo‘lga qo‘yish uchun maxsus kommunikatsiya tizimlari yordamida yoxud kurerlar vositasida ta‘minlanadigan aloqa tizimi o‘rnatilishi kerak. Bunday aloqa tizimidan foydalanish vaqtida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko‘chirma nusxasi G‘aznachilikka elektron variantda yuboriladi. Ayni vaqtning o‘zida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini jamlab qo‘yiladigan, harakati nazorat qilinadigan va o‘zaro aloqadorlik munosabatlarida bo‘lgan har ikki tomondan yuboriladigan rasmiy hujjatlar jumlasiga avtomatik tarzda kiritiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan operatsiyalarning avtomatik tarzda bajarilishini “Ma‘lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish” deb nomlangan modul ta‘minlab beradi.

Davlat budjetining daromad va xarajatlari moddalar bo‘yicha amalga oshirilgan kassa operatsiyalariga asoslanib “Bosh kitob” deb nomlangan modul tomonidan G‘aznachilikda yuritiladigan Bosh kitobda qayd etilishi uchun alohida ma‘lumot tayyorlanadi. Bu xildagi ma‘lumotlar har kuni kun davomida muntazam ravishda G‘aznachilikka yuborib turiladi. G‘aznachilik tarkibiga kiruvchi barcha bo‘linmalardan kerakli ma‘lumotlarni yig‘ib olganidan keyin har kun davomida bir marotabadan jamlangan ma‘lumotlar Bosh kitobga qayd etiladi va bajarilgan ishlar asosida joylarga tasdiqlangan ma‘lumotlar yuboriladi. Yaratilgan modul kommunikatsiya tizimidagi aloqalar nisbatan yomon

ishlaganida, G'aznachilikning hududiy bo'linmalaridan yuboriladigan ma'lumotlarning kelishi nisbatan sust kechganida ham bir maromda ishlab turishga qodir.

G'aznachilikning har bir hududiy bo'linmasidan keladigan, u herda amalga oshirilgan kassa operatsiyalari haqidagi, ma'lumotlarga asoslanib hisobotlarni generatsiyalovchi alohida modul yordamida har xil hisobotlar (budjetning daromad qismiga kelib tushgan tushumlar, daromadlarni turli xil budjetlar o'rtasida taqsimlanishi, budjetning xarajat qismi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar, budjetdan xarajatlari amalga oshirilgan loyihalar haqida, shuningdek, har qanday yig'ma va konsolidatsiyalangan) tayyorlasa bo'ladi. Tadbiq etilayotgan informatsion tizim avval aytib o'tilgan asosiy funktsiyalardan tashqari budjetdan xarajatlari amalga oshiriladigan tashkilotlarga budjetdan tashqari manbalardan ajratib beriladigan mablag'larning qabul qilinishi va sarflanishi haqidagi to'liq ma'lumotlarni avtomatik tarzda hisobga olib keyinchalik nazorat qilib borishga imkoniyat yaratib beradi.

III bob bo'yicha xulosa

G'aznachilik - davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning yangi usuli, mahalliy budjetlarning barcha daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarni amalda qo'llashdir. Qolaversa, bu budjetning har bir so'mini oqilona ishlatishni ta'minlovchi mexanizm. Mahalliy boshqaruv organlarining mahalliy budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, budjet intizomiga rioya qilish, dastlabki va joriy nazoratga urg'u berish, budjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzдорligiga yo'l qo'ymaslik - g'aznachilik tizimi faoliyatining samarasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari alohida o'rin egallaydi. Ularning faoliyati budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlarini to'lab berishda mablag'larning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash, shartnomalarni

ro'yxatga olishda dastlabki nazoratning samarali bo'lishiga erishish, to'lovlarni amalga oshirishda joriy nazoratni ta'minlash, davlat xaridlarini amalga oshirishda tegishli monitoring ishlarini olib boorish orqali davlat mablag'lari hisobiga sotib olinadigan tovarlar narxlarining asossiz oshib ketishining oldini olish, davlat qarzining hisobini yuritish kabilarga, pirovardida davlat mablag'larini samarali boshqarishdek muhim vazifani bajarishga qaratilgan.

Xulosa

Ma'lumki, 2015 yil 16 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2014 yil yakunlari va 2015 yil istiqbollariga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ma'ruza qildilar va unda bugungi kundagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolar ochib berildi hamda taraqqiyot dasturlarining eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Mazkur bitiruv malakaviy ishda asosan ana shu ustuvor vazifalarni bajarishda davlat moliyasini boshqarish organlarining o'rni, ahamiyati, davlat moliyasini isloh qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining muhim tarkibiy bo'linmasi bo'lgan G'aznachilik organlarining davlat mablag'larini boshqarishdagi faoliyatini takomillashtirish masalalari o'rganildi. Izlanishlarimiz asosida shakllangan hulosalarimiz quyidagilardan iborat:

Birinchidan, XX asrning oxirgi 10 yilida bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida davlatning iqtisodiyotdagi roli oshib bordi va u ko'pchilik iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarni o'z zimmasiga oldi. Bu esa professional davlat xizmatini shakllantirish va barcha davlat boshqaruvi strukturalarini mustahkamlashni talab etdi. XXI asrning dastlabki 10 yillariga to'g'ri keladigan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangidash sharoitidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish tizimini ham qamrab oldi. Bu boradagi islohotlar bir qancha yo'nalishda, ya'ni budget-soliq qonunchiligini takomillashtirish, budget hisobi va hisobotini mustahkamlash, yangi budget tasnifini takomillashtirish, budget ijrosining g'aznachilik tizimini shakllantirish va uning tashkiliy, huquqiy, metodologik, texnik va texnologik asoslarini mustahkamlash kabi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda va bu jarayonning 2020 yillargacha davom etishi ko'zda tutilmoqda.

Ikkinchilan, bu sohadagi islohotlar davlat moliyasi, davlat budjeti va budget jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining

samaradorligini oshirishni koʻzda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini barcha sohalarda, xususan budget tizimini boshqarishda soʻnggi ijobiy natijalarni koʻzlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pogʻonasiga koʻtarish talab etilmoqda. Buning uchun budget tizimini boshqarish tizimida qator ishlar amalga oshirildi, ularning asosiy mazmuni, amalga oshirish boqichlari va har bir bosqichda amalga oshirilgan tadbirlar tahlili ishimizning I bobi, 1-paragrafida keltirilgan.

Uchinchidan, davlat budgetining gʻazna ijrosini joriy etish, budget mablagʻlarini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlari mukammallashib, takomillashib borayotgan bugungi davrda davlat budgetining gʻazna ijrosini tatbiq etish hisobiga budget tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budget mablagʻlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budget daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning taʼsirchan ishlashini taʼminlash zarur. Buning uchun ishimizning 2 bobi 3-paragrafida bayon etilgan Gʻaznachilik organlarining nazorat funksiyalarining mukammal bajarilishiga erishish, bu sohaga tajribali, bilimli, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni puxta egallagan, qonunchilikni va undagi oʻzgarishlarni yaxshi biladigan va ularni amaliyotda qoʻllay oladigan kadrlar tayyorlash tizimini jiddiy yaxshilash lozim.

Toʻrtinchidan, davlat budjeti gʻazna ijrosi jarayonining qonuniy-huquqiy asoslarini doimo takomillashtirib borish lozim. Maʼlumki, bu borada qabul qilingan yangi Budget Kodeksi 2004-2013 yillar davomida amal qilib kelgan “Davlat budgetining gʻazna ijrosi toʻgʻrisida”gi Qonunida nazarda tutilgan normalarni ham mujassamlashtirgan, lekin amalga kiritilgan Budget Kodeksida “davlat budjeti gʻazna ijrosi” tushunchasi oʻzining aniq ifodasini topmagan, vaholanki, davlat budjeti gʻazna ijrosining mazmun-mohiyatini bilish – ham nazariy, ham amaliy nuqtai-nazardan muhimdir, deb hisoblaymiz. Shuningdek, Kodeksda budget jarayonining ishtirokchilari boʻlgan Moliya vazirligi

G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari vakolatlari alohida ko‘rsatilishi va belgilab qo‘yilishi lozim. Demak, davlat moliyasini boshqarish jarayoni doimo o‘zgarib va takomillashib boradigan jarayon, uning samarasini oshirish uchun unga asos bo‘luvchi qonuniy-huquqiy bazani doimo takomillashtirib borish lozim;

Beshinchidan, davlat budjeti g‘azna ijrosining joriy qilinishi munosabati bilan bu tizimning mukammal ishlashini ta‘minlovchi barcha tashkiliy elementlarni: qonuniy-huquqiy bazani; axborot-kommunikatsion texnologiyalarni; bu tizimga kadrlar tayyorlashni; budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishni, ularni moliyalash mexanizmlarini doimo takomillashtirib borish maqsadga muvofiq;

Oltinchidan, Moliya vazirligi G‘aznachiligi faoliyatini takomillashtirishda xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik alohida muhim ahamiyatga ega, bu borada davlat moliyasini boshqarish sohasini yaxshilash, o‘rta muddatli budjet prognozlarini tuzish, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarini joriy qilish masalalarida xorijiy tashkilotlar, fondlar va rasmiy hukumat organlari bilan ilmiy va amaliy hamkorlik yaxshi natijalarni berayotganligini e‘tirof etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2001-39 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
2. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.
3. "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridi tizimini optimallashtirish va unga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475 – sonli Qarori. 07.02.2011 y.
5. "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-1887-son. 25.12.2012.
6. "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2099-son. 25.12.2013.
7. "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 04.12.2014.
8. "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori. 03.09.1999. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 148-son qarori (16.06.2007) bilan tasdiqlangan yangi tahriri).

9. “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son qaroriga ilova.

10. “Davlat budjetining g‘azna ijrosi Qoidalari”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 4.08.2009 y. 69-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 16.09.2009 y. 2007-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

11. “O‘zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma” O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 20.08.2010 y. 65-son buyrug‘iga ilova. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 19.11.2010y. 2146-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

12. Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo‘yicha tender savdolari o‘tkazish to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2009 y. PQ-1245-son Qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri)

13. O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang‘ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron auksion savdolari tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6.09.2012 y. 260-son qaroriga ilova.

14. “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom ”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 15.12.2014 y. 2634-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T: O‘zbekiston. 2009. – 56 b.

16. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: “O‘zbekiston”. 2011 y. 24 b.

17. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. - T.: O'zbekiston. 2012 y. 32 b.

18. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston. 2013 y. 32 b.

19. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2014 y. 32 b.

20. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish — ustuvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston. 2015. 32b.

21. Karimov I.A. “Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan”. Ilmiy-ommabop risola. T.: O'zbekiston. 2011 y. 200 b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

22. Burxonov U. Davlat xaridi. T.:«infoCOM.uz». 2010. 140 b.

23. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA” - 2010, 595 b.

24. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. T.: «infoCOM.uz». 2009. 192b.

25. I.Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2009. 120 b.

26. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

27. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 207b.

28. Srojiddinova Z. Budjetlararo munosabatlar. T.: «infoCOM.uz». 2010. 156 b.
29. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:«infoCOM.uz». 2010. 480b.
30. Fayzullaev Yo.Sh., Azizova I.A. Budjetni o'rta muddatli rejalashtirish. T.:«infoCOM.uz». 2010. 152 b.
31. Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012. 304 b.
32. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2012. 260 b.
33. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. 372 b.
34. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya". 2007. 201 b.
35. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. 448b.
36. Po'latov D., Nurmuxamedova B. G'aznachilik. Darslik. - T.: "Sano-standart". 2014. 272b.
37. Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. 235b.
38. Акперов И.Г. и др. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации: Учебное пособие. – М.: КНОРУС. 2009 стр.
39. Афанасьев М.П. Бюджет и бюджетная система (изд:2), ЮРАЙТ, 2011. 782 стр.
40. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011. 336 стр.
41. Селезнев А.З. Бюджетная система Российской Федерации. Магистр. 2011. 383 стр.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

42. Umarov B. Soliq imtiyozlari yordamida tadbirkorlik sub’ektlarini rag‘batlantirish masalalari. “Moliya” ilmiy jurnali. 2/2012. 59-bet.

43. Ismailova N. Davlat budjeti mablag‘lari samaradorligini oshirishda budjet nazoratining ahamiyati. “Moliya” ilmiy jurnali. 6/2013. 34-bet.

44. Eshnazarov T.Sh. Davlat g‘aznachiligining yagona g‘azna hisobvarag‘I va uni rivojlantirish istiqbollari. “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnal. 9/2013. 17-bet.

45. Eshnazarov T.Sh. Davlat budjeti g‘azna ijrosi: bujet mablag‘larini rejalashtirish va boshqarishning asosiy yo‘nalishlari. “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnal. 12/2013. 2-bet.

46. Nurmuxamedova B. G‘aznachilik faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. “Moliya” ilmiy jurnali. 2/2014. 5-bet.

47. Срожиддинова З. Аспекты совершенствования бюджетного Кодекса Республики Узбекистан. “Moliya” ilmiy jurnali. 2/2014. 28-bet.

48. “Budjet ijrosiga g‘aznachilik tizimini joriy etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2011 y.

49. “Iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda davlat xaridlarining rolini oshirish” mavzusidagi respublika turdosh Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. 2014. - 583b.

50. O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TMI. 2015.

51. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlar: statistik to‘plam. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2011.

52. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten. Toshkent-2013.

IV. Internet saytlari

www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti)

www.undp.uz (BMTTD rasmiy sayti)

www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi)

www.publicfinance.uz (O'zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti)

www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi rasmiy sayti)

ILOVALAR

1-ilova

20__ yil uchun daromadlarning yillik reja

*

ming so'mda

Ob'ekt nomi	Daromadlar turi (bo'lim, paragraf, daromad turi)			Yillik tasdiqlangan reja																
				yillik hammasi	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak						
					h a m m a s i	oylar			h a m m a s i	oylar			h a m m a s i	oylar			h a m m a s i	oylar		
						ya n v a r a l	f e v r a l	m a r t		a p r e l	m a y	i y u n		i y u l	a v g u s t	s e n t a b r		o k t a b r	n o y a b r	d e k a b r
A	B	V	G	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
...																				
Jami daromadlar																				

Moliya organi rahbari

(imzo)

M.O'.

G'aznachilik bo'linmasi rahbari

(imzo)

M.O'.

*) Davlat budjeti, respublika budjeti, QR, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) budjeti.

AV 02.08.2011 y. 2112-1-son bilan ro'yxatga olingan MV Buyrug'i tahriridagi ilovadan olindi.

20__ yil uchun xarajatlarning yillik rejasi

*

ming soʻmda

Ob'ektlar nomi	Bo'lim	Kichik bo'lim	Roh	Taifa	Modda va	Element	Yillik tasdiqlangan reja																
							1-chorak				2-chorak				3-chorak				4-chorak				
							hamma	oylar			hamma	oylar			hamma	oylar			hamma	oylar			
								yanv	fevr	al		mart	aprel	may		iyun	iyul	avg		et	sent	okty	abr
A	B	V	G	D	J	Z	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
I guruh xarajatlari - Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar																							
Ish haqi - jami																							
Ish haqi																							
...																							
Jami 1-g. xarajatlari																							
II guruh xarajatlari - Ish haqiga qo'shimcha to'lovlar																							
Ish beruvchilarga jratmalari - jami																							
Jami 2-g. xarajatlari																							
III guruh xarajatlari - Kapital qo'yilmalar																							
Kapital qo'yilmalar																							
...																							
Jami 3-g. xarajatlari																							
IV guruh xarajatlari - Boshqa xarajatlar																							
Boshqa xarajatlar - jami																							
...																							
Jami 4-g. xarajatlari																							
Jami xarajatlar																							

Moliya organi rahbari

(imzo)

M.Oʻ.

Gʻaznachilik boʻlinmasi rahbari

(imzo)

M.Oʻ.

*) Davlat budjeti, respublika budjeti, QR, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) budjeti.

Respublika budjetiga 20__ yil _____
oyi uchun daromadlar tushumi
PROGNOZI

					<i>ming so'mda</i>
N	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi*	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				JAMI DAROMADLAR	

*) Daromadlar nomi budjet tasnifiga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi
 Moliya vazirligi Davlat
 budjeti bosh boshqarmasi

 (imzo)

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
 Moliya vazirligi G'aznachiligi

 (imzo)

M.O'.

AV 02.08.2011 y. 2112-1-son bilan ro'yxatga olingan MV Buyrug'i tahriridagi ilova

**20__ yil _____ oyi uchun tuman (shahar)
bo'yicha Davlat budjetiga kutilayotgan
daromadlar tushumi to'g'risidagi
TEZKOR MA'LUMOT***

					<i>ming so'mda</i>
N	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi**	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				JAMI DAROMADLAR	

*) Hisobot oyining 3-sanasiga taqdim qilinadi.

**) Daromadlar nomi budjet tasnifiga muvofiq.

Davlat soliq xizmati organi rahbari

(imzo)

M.O'.

AV 02.08.2011 y. 2112-1-son bilan ro'yxatga olingan MV Buyrug'i tahriridagi ilova

**20__ yil _____ oyi uchun respublika budjetiga
kutilayotgan daromadlar tushumi to'g'risidagi
TEZKOR MA'LUMOT***

					<i>ming so'mda</i>
N	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi**	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				JAMI DAROMADLAR	

*) Hisobot oyining 3-sanasiga taqdim qilinadi.

**) Daromadlar nomi budjet tasnifiga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat bojxona qo'mitasi

(imzo)

M.O'.

_____ viloyati (tumani (shahri))
 budgetiga 20__ yil _____ oyi
 uchun daromadlar tushumi
PROGNOZI

<i>ming soʻmda</i>					
N	Boʻlim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi*	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				JAMI DAROMADLAR	

*) Daromadlar nomi budget tasnifiga muvofiq.

Moliya organi rahbari

(imzo)

M.Oʻ.

Gʻaznachilik boʻlinmasi rahbari

(imzo)

M.Oʻ.

20__ yil _____ oyi uchun tuman (shahar)
bo'yicha Davlat budjetiga kutilayotgan
daromadlar tushumi to'g'risidagi
TEZKOR MA'LUMOT*

					<i>ming so'mda</i>
N	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Daromadlar nomi**	Summasi
1.					
2.					
3.					
.....					
				JAMI DAROMADLAR	

*) Hisobot oyining 3-sanasiga taqdim qilinadi.

**) Daromadlar nomi budjet tasnifiga muvofiq.

Davlat soliq xizmati organi rahbari

(imzo)

M.O'.

_____sonli XARAJATLAR TO'LOVI RUXSATNOMASI (XTR)
(Tayinlash sertifikat)

Budjetdan mablag' oluvchining nomi _____

G'aznachilik bo'linmasining nomi _____

Shaxsiy hisobvarag'i _____

XTR berilgan sana _____

O'lch. birligi: so'm

Xarajatlar turi	Oylar												JAMI
	ya n v a r	f e v r a l	m a r t	a p r e l	m a y	i y u n	i y u l	a v g u s t	s e n t y a b r	o k t y a b r	n o y a b r	d e k a b r	
1-guruh xarajatlari													
....													
2-guruh xarajatlari													
....													
3-guruh xarajatlari													
....													
4-guruh xarajatlari													
....													
JAMI:													

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
 G'aznachiligi Amaliyot boshqarmasi moliyaviy
 majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish
 va to'lovlarni amalga oshirish
 bo'limi mutaxassisi

 (imzo)

M.O'.

_____sonli XARAJATLAR TO'LOVI RUXSATNOMASI (XTR)
(Tayinlash sertifikat)

Budjetdan mablag' oluvchining nomi _____

G'aznachilik bo'linmasining nomi _____

Shaxsiy hisobvarag'i _____

XTR berilgan sana _____

O'lch. birligi: so'm

Xarajatlar turi	Oylar												JAMI
	ya n v a r	f e v r a l	m a r t	a p r e l	m a y	i y u n	i y u l	a v g u s t	s e n t y a b r	o k t y a b r	n o y a b r	d e k a b r	
1-guruh xarajatlari													
....													
2-guruh xarajatlari													
....													
3-guruh xarajatlari													
....													
4-guruh xarajatlari													
....													
JAMI:													

Qoraqalpog'iston Respublikasi (viloyatlar)
 G'aznachiligi moliyaviy majburiyatlarni
 ro'yxatdan o'tkazish va to'lovlarni amalga
 oshirish guruhi mutaxassisi*

 (imzo)

M.O'.

*) Agar XTR tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmalarida berilgan bo'lsa, uni tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmasi moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va to'lovlarni amalga oshirish guruhi mutaxassisi imzolaydi.

**Moliya yiliga XTR berilishi mumkin bo'lgan xarajatlar
RO'YXATI***

Xarajatlar nomi	Toifa	Modda va kichik modda	Ele- ment
III guruh xarajatlari (kapital qo'yilmalar)			
Asosiy vositalarni loyihalashtirish	43	10	000
Bino	43	11	000
Turar joy binolari	43	11	100
Noturar joy binolari	43	11	200
Inshoot	43	12	000
Loyihalashtirish va qidiruv ishlari xarajatlari	43	12	110
Boshqa inshootlar	43	12	900
Asosiy vositalarni loyihalashtirish bo'yicha boshqa xarajatlar	43	19	000
Asosiy vositalarni qurish va rekonstruktsiya qilish	43	20	000
Bino	43	21	000
Turar joy binolari	43	21	100
Noturar joy binolari	43	21	200
Inshoot	43	22	000
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari	43	22	100
Boshqa inshootlar	43	22	900
Asosiy vositalarni qurish va rekonstruktsiya qilish bilan bog'liq boshqa xarajatlar	43	29	900
Asosiy vositalar bo'yicha boshqa xarajatlar	43	90	000
Buyurtmachini saqlash xarajatlari	43	90	100
Qurilish pudrat xarajatlari	43	90	200
Buyurtmachining boshqa xarajatlari	43	90	300
IV guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar)			
Kommunal xizmatlar	42	20	000
Elektr energiyasi	42	21	000
Tabiiy gaz	42	22	000
Issiq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000
Sovuq suv va oqova	42	24	000
Chiqindilarni tozalash, olib chiqib ketish bilan bog'liq xizmatlar hamda energetik va boshqa resurslarni (benzin va boshqa YoMMLardan tashqari) sotib olish	42	25	000
Bino	42	32	000
Noturar joy binolari	42	32	200
Mashinalar, jihozlar va texnika	42	34	000
Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-, videotexnika	42	34	920
Saqlab turish va joriy ta'mirlash bo'yicha boshqa turdagi xarajatlar	42	39	000
Mashinalar, jihozlar va texnika	42	44	000
Transport vositalari	42	44	100
Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar	42	50	000
Strategik zaxiralar	42	51	000

Davlat zaxiralari	42	51	100
Boshqa moddiy aylanma vositalar	42	52	000
Dori-darmonlar, tibbiyotda foydalaniladigan vositalar, vaktsinalar va bakteriologik preparatlar	42	52	400
Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar	42	52	410
Vaktsinalar va bakteriologik preparatlar	42	52	420
Ambulatoriya sharoitida davolanuvchi imtiyozli bemorlar kontingentiga retsept asosida bepul beriluvchi dori-darmonlar	42	52	430
Yonilg'i va YoMM	42	52	500
Ko'mir	42	52	600
Telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari	42	92	000
Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100
Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	200
Ob'ektlarni qo'riqlash xizmatlari	42	93	000
Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar	42	99	000
Tovar va xizmatlar sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	42	99	990
Asosiy vositalarni kapital ta'mirlash	43	30	000
Bino	43	31	000
Turar joy binolari	43	31	100
Noturar joy binolari	43	31	200
Inshoot	43	32	000
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari	43	32	100
Boshqa inshootlar	43	32	900
Transport vositalari, mashinalar, jihozlar va texnika	43	33	000
Transport vositalari	43	33	100
Boshqa mashinalar, jihozlar va texnika	43	33	900
Asosiy vositalarni kapital ta'mirlash bo'yicha boshqa xarajatlar	43	39	000
Mashinalar, jihozlar va texnika	43	54	000
Transport vositalari	43	54	100
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha	44	22	000
Obligatsiyalar bo'yicha	44	22	200
Dotatsiyalar	46	41	100
Qoraqalpog'iston Respublikasiga	46	41	110
Viloyatlar va Toshkent shahriga	46	41	120
Subventsiyalar	46	41	200
Qoraqalpog'iston Respublikasiga	46	41	210
Viloyatlar va Toshkent shahriga	46	41	220
O'tkazib beriladigan mablag'lar	46	41	300
Qoraqalpog'iston Respublikasiga	46	41	310
Viloyatlar va Toshkent shahriga	46	41	320
Pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari	47	21	000
Etim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nafaqalar	47	21	600
Pul shaklidagi boshqa ijtimoiy yordam nafaqalari	47	21	900
Natura shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari	47	22	000
Etim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash nafaqalari	47	22	100

Qishki kiyim va poyabzal bilan ta'minlash xarajatlari	47	22	200
Darsliklar bilan ta'minlash xarajatlari	47	22	300
Yo'l chiptasi bilan ta'minlash xarajatlari	47	22	400
Yolg'iz qariyalar uchun oziq-ovqat sotib olish xarajatlari	47	22	600
Ish beruvchilar tomonidan pul shaklida beriladigan ijtimoiy nafaqalar	47	31	000
Joriy xarajatlar	48	21	000
Boshqa xarajatlar	48	21	190
Fuqarolarga etkazilgan zararlarni qoplash	48	21	500

**) Moddalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'iga asosan aniqlashtirilishi mumkin.*